

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

DILORA NE'MATOVA

**MUSTAQILLIK YILLARIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR:
ILK NATIJALAR VA MUAMMOLAR**

Magistrlik darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

Tarix fanlari nomzodi

X.QURBONOV

Navoiy – 2013

«MUSTAQILLIK YILLARIDA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: ILK NATIJALAR VA MUAMMOLAR»

REJA:

KIRISH

I.BOB. TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI: ISTIQLOLGACHA VA ISTIQLOL YILLARI.

- 1.1. CHor Rossiyasi va sovetlar hukmronligi yillarida ta'lim tizimi.
- 1.2. O'zbekiston mustaqilligi arafasida ta'limi muammolari.
- 1.3. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar istiqboli.

II.BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHNING KONSEPTUAL, NAZARIY VA HUQUQIY- ME'YORIY ASOSLARI.

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim sohasini isloh qilish to'g'risidagi g'oyalari.
- 2.2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning hayotga joriy etilishi.

XULOSA

ILOVALAR

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RUYXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Jahon tarixiy tajribasining guvohlik berishicha birorta ham xalq va millat ta'lim tarbiyaga e'tiborsiz taraqqiyotga erisha olmagan. Bugungi kunda ma'naviyatga, ta'lim – tarbiyaga, milliy kadrlar tayyorlashga birinchi darajali ahamiyat bermaydigan jamiyat, davlat, xalq va millat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni bartaraf etolmaydi. Xalqi ma'naviy, ma'rifiy jihatdan yetuk bo'lmagan mamlakat tabiiy - iqtisodiy boyliklariga behisob, harbiy jixatdan qudratli bo'lgan taqdirda ham buyuk davlat bo'la olmaydi.

El – yurtiga, Vataniga sadoqatli, iymon – e'tiqodli, mard va jasur, malakasi yetuk, ma'naviyati yuksak insonlar, barkamol avlod har qaysi davlatning qudratli salohiyat manbasidir. Ana shunday noyob hislat va fazilatlarga ega bo'lgan insonlarni, barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazgan xalq, albatta kelajakka ochiq ko'z, katta ishonch, umid va ixlos bilan qaray oladi. Ko'rinib turganidek, mustaqil O'zbekiston taraqqiyoti taqdirini ham ma'naviy jihatdan yetuk insonlar hal qiladi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi o'zgarishlari jamiyatimiz xayotining barcha soxalaridagi kabi istiqlol yillarida olamshumul axamiyatga ega bo'lgan o'zgarishlar amalga oshirildi.. YOsh mustaqil davlatimizning kelajak taraqqiyoti albatta uning intelktual saloxiyatli va ma'naviy yetuk yoshlariga bog'liq.Ushbu xolat mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq xukumatimiz va prezidentimizning doimiy e'tiboridagi masala bo'lib kelmoqda.

Prezidentimiz I.Karimov “YUksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida: **“Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”**¹, - deb ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda buyuk kelajak qurishda ta'lim – tarbiya soxasiga aloxida e'tibor qaratilmoqda. Uning natijasida O'zbekistonda ta'lim soxasida jahon andozasidagi kadrlarni yetishtirib berishga qaratilgan ta'lim tizimi ishlab chiqilib xayotga joriy qilindi.Bunda “Ta'lim to'g'risidagi Qonun” va “Kadrlar tayyorlash

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.62

milliy dasturi”ning eslashni o’zi kifoyadir. Mamlaktimiz xayoti uchun muxim bo’lgan mazkur dasturlarni qabul qilinishi xozirgi kunda ta’lim – tarbiya sohasida erishgan yutuqlarmiz uchun asos bo’ldi. Endilikdagi vazifa O’zbekiston ta’limi sohasidagi islohotlarga asos bo’lgan me’yoriy hujjatlarning mohiyatini anglash, ta’limning istiqlol yillari va istiqlolgacha bo’lgan davrdagi holatini tavirlash hamda tahlil qilish masalalari mavzuning dolzzarbligidan dalolat beradi.

Mavzuning o’rganilganlik darajasi. Ushbu mavzu bir nechta nomzodlik, magistrlik, bir nechta bitiruv malakaviy ishlar tayyorlangan va himoya qilingan va qilinmoqda. Ammo, ta’lim sohasining aynan Navoiy viloyati misolida alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o’rganilmagan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi mustaqillik yillarida ta’lim tizimidagi islohotlarni Navoiy viloyati misolida o’rganish va istiqlolgacha bo’lgan davr bilan qiyosiy tahlil etishdan iboratdir. Ushbu masaladan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilandi:

- O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning ta’lim sohasini isloh qilish to’g’risidagi fikr va g’oyalarini o’rganish va yosh avlod ongiga singdirish;
- CHor Rossiyasi va sovetlar hukmronligi yillarida ta’lim tizimi va islohotlar mohiyatini ochib berish;
- O’zbekiston mustaqilligi arafasida ta’lim muammolari masalalarini tahlil qilish;
- Mutaqillik yillarida ta’lim va tarbiya sohasidagi islohotlarning mexanizmi va istiqbolini o’rganish;
- ta’lim to’g’risidagi huquqiy va me’yoriy hujjatlarning tahlil qilish va mohiyatini hayotga tadbiq etish;
- ta’lim tizimidagi islohotlarda mavjud muammolarni ilmiy jihatdan o’rganish va tahlil qilish natijasida olingan xulosalardan kelib chiqib, ilmiy hamda amaliy taklif hamda tavsiyalar berish.

Tadqiqot ob’ekti va predmeti. O’zbekistonning istiqlolgacha bo’lgan va istiqlol yillarida ta’lim tizimidagi islohotlarnining natija va muammolarini Navoiy viloyati misolida o’rganish tadqiqot ob’ekti sifatida olingan.

Ta'lim tizimining tarbiya bilan bog'liqligi va islohotlarning huquqiy-me'yoriy jihatlarini ilmiylik, xolislik, tarixiylik jihatdan izchil o'rganish va tahlil qilish tadqiqot predmeti qilib olindi.

Dissertatsiyaning nazariy va uslubiy asoslari. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy nazariy qoidalari hamda uning ustuvor tamoyillari, ilmiy bilishning xolislik, tarixiylik, tizimlilik prinsiplari dissertatsiyaning nazariy-uslubiy asosini tashkil etadi.

Tadqiqotni tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekistonning yangi tarixini yaratishdagi metodologik, ilmiy-nazariy va mafkuraviy ahamiyatga molik g'oyalari muhim konseptual-metodologik ahamiyatga ega bo'ldi.

Ishning ilmiy yangiligi. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Navoiy viloyatida to'liq o'rganilmagan ta'lim tizimidagi islohotlarni chuqur ilmiy ta'lil qilish asosida qabul qilinayotgan me'yoriy hujjatlarning amaliyotga tadbiiq etilishi, tizimdagi erishilgan natija va muammolarni o'z yechimini topadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida vujudga kelgan ma'lumotlar, xulosalar, nazariy umumlashtirishlar istiqlol yillarida ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarni xolisona o'rganilganligi bilan ahamiyatlidir. Dissertatsiya materiallari milliy, umuminsoniy qadriyatlarni o'zaro uyg'unlikda o'rganish va bu borada xalqimiz ongida xolis tarixiy tafakkur hosil qilishda ham ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari XX asr va O'zbekiston mustaqilligi yillarida ta'lim va tarbiya tizimidagi islohotlarning mazmuni va mohiyatini o'rganuvchi ilmiy izlanuvchilar uchun nazariy qo'llanma hamda axborot manbai bo'la oladi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat.

I.BOB. TA'LIM TIZIMI ISLOHOTLARI: ISTIQLOLGACHA VA ISTIQLOL YILLARI.

1.1. CHor Rossiyasi va sovetlar hukmronligi yillarida ta'lim tizimi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov o'zbek xalqining istiqlol yillarida qayta uyg'onayotgan milliy ma'naviyati va ma'rifatiga to'xtalib, jumladan, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqar-rar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch - ma'rifatdir. Asrimiz boshida Turkistonda kechgan voqealarni bir eslang. Nega bu o'lkada o'sha yillari ma'rifatchilik harakati har qachon-gidan ham kuchayib ketdi? Negaki, chor Rossiyasi asoratiga tu-shib qolib, butkul tanazzulga yuz tutgan o'lkani uyg'otishga, xalq-ning ko'zini ochishga faqat ma'rifat orqaligina erishish mumkin edi".¹

Rossiya imperiyasi Turkistonni istilo qilguniga qadar o'lkada eski maktab, masjid, qorixona, daloilxona, otin oyi maktablari va madrasalar tizimi keng tarqalgan edi. 1867 yil 14 iyulda Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgan paytdan boshlab butun iqtisodiy, siyoviy hayotda bo'lgani kabi tub xalq ma'naviy madaniyatining tayanchlari hisoblangan madrasa, maktablar ustidan ham imperiya hukumatining nazorati o'rnatildi. Rossiya hukmron doiralari milliy maktab, madrasalar faoliyatini o'rganib, mustamlakachilikning bundan keyingi istiqboli uchun ularning xavfli ekanligini tushunib yetgandi. Turkiston o'lkasining barcha general-gubernatorlari o'lkada izchil ruslashtirish siyosatini olib bordilar. Aksariyat hollarda bu siyosat aynan ta'lim sohasidan boshlandi. Bu sohada hattoki imperiya hukumatining maxsus dasturi ham ishlab chiqildi.

Turkiston o'lkasining birinchi general-gubernatori, general-ad'yutant K.P. fon Kaufman (1867 - 1882) diniy urf-odat, marosimlarga aralashmaslik asosida milliy maorifga nisbatan ruslashtirish siyosatini qo'llab-quvvatladi.

Kaufman davridan boshlab mustamlaka ma'muriyati zimma-siga musulmon ruhoniylarining vaqf yerlarini tekshirish vazifasi yuklatilgandi. Bundan tashqari,

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: SHarq, 2008. 3-bet.

vaqf yerlari arzimagan baholarda rus kapitalistlari va yuqori lavozimdagi amaldorlarga sotib yuborildi. Musulmon ruhoniylarining iqtiso-diy negiziga zarba berilishi oqibatida madrasa va maktablar faoliyatiga ham ziyon yetkazildi, chunki ular azaldan davlat mablag'i hisobidan emas, balki vaqf yerlaridan tushgan daromad va jamoat xayriyasi hisobidan kun kechirganlar.

Mustamlaka ma'muriyati Turkistonning ma'naviy-madaniy hayotida asrlar davomida muhim o'rin egallab kelgan madrasa va maktablar qiyofasida "musulmonchilik o'choqlari"ni ko'rdilar, ularga "Ruslarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida, bu yerda ularni obro'sizlantirishga qaratilgan rejalar tuzish bilan shug'ullanishadi", deb baho berdilar.¹

General-gubernator Kaufman milliy maktablardan ham ko'ra ko'proq madrasalar xavfli ekanligini qayd etgan, chunki madrasalar oliy diniy o'quv yurti hisoblanib, azal-azaldan olim, fozilu fuzalo, allomalar hamda o'z zamonasining donishmandlarini yetishtirib bergan. General-gubernator mad-rasalar faoliyatiga quyidagi tarzda baho beradi: "Madrasalar musulmon diniy zodagonlari kuchi va imtiyozlarini muhofaza qiluvchi muassasalar sifatidagi muhim siyosiy vazifa-dan tashqari, bugungi kunda ham musulmon targ'ibotining markazi va o'chog'i sifatidagi boshqa asosiy rolni bajarib kel-moqdalar". Kaufman ana shu sababdan ham madrasalar ahami-yatini o'lkada tez orada yo'qqa chiqarish kerak deb hisoblagan edi.

Turkistonda mustamlakachilik tuzumi o'rnatilgandan so'ng musulmonlarning ijtimoiy hayotida katta o'rin egallagan, "shariati panoh" deb qaralgan qozikalon va shayx ul-islom, rais hamda mutavalliboshi lavozimlari general-gubernator Kaufman tomonidan tugatildi.

Imperiya hukumati Turkistonda madrasalar faoliyatini cheklashga intildi hamda ularga nisbatan ham ruslashtirish siyo-satini doimiy ravishda qo'llab keldi. Diniy maorif maskanlaridan biri bo'lgan madrasalar faoliyatiga nisbatan ham hukumat amaldorlari tomonidan turli xil tazyiqlar o'tkazildi. Toshkent shahri 1865 yil 17 iyunda imperiya qo'shinlari to-monidan bosib olingach, madrasalarni

¹ Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limidagi o'zgarishlar (XX asrning 20-yillari). – T.: Akademnashr, 2010 .5-bet.

mustamlakachilarning manfaatlariga mos ravishda qayta tashkil etish masalasi o'rtaga qo'yildi. 1866 yilgi ma'lumotlarga qaraganda, Toshkent shahridagi madrasalarning vaqf yerlari 6615 tanobni tashkil qilgan. Toshkent shahridagi madrasalar ichida eng yuqori daromad oluvchi madrasa Xoja Ahror Valiy madrasasi hisoblangan. Uning daromadi yiliga o'rtacha 3100 rublni tashkil etgan.

1870 yilda imperiya markazida mahalliy aholini ruslash-tirish maqsadida "Rossiyada istiqomat qiluvchi g'ayritabaa* kishilarga ta'lim berish chora-tadbirlari to'g'risida" qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda barcha tubjoy xalqlariga ta'lim berishning asosiy maqsadi ruslashtirishdan iborat bo'lishi ta'-kidlab o'tildi.

General-gubernator Kaufman hukumatga 1873 yilda "Turkis-tonda xalqta'limi va o'quv ishlarini tashkil qilish rejasi"ni taqdim etdi. Unga ko'ra, diniy maktablar faoliyatiga qarama-qarshi ravishda mahalliy aholi farzandlari uchun rus maktablari ochiladigan bo'ldi. Imperiya amaldorlari va hukumatning e'tirof etishicha, faqat shunday maktablarga mahalliy aholini ruslashtirishga ko'maklashishi mumkin edi.

1874 yilda Toshkent shahrining SHayxontohur dahasida 150 talabasi bo'lgan 2 madrasa, Sebzorda 195 talabasi bo'lgan 4 madrasa, Ko'kcha dahasida esa 25 talabasi bo'lgan 3 madrasa faoliyat ko'rsatgan.

Rossiya imperatorining 1875 yil 17, maydagi qaroriga asosan Turkiston o'quv yurtlari boshqarmasi va o'quv yurtlari bosh inspektori lavozimi ta'sis etildi. Ushbu boshqarma vakolatiga rus maktablari bilan bir qatorda mahalliy maktablar (maktab, madrasa, qorixonalar) ustidan ham nazorat olib borish huquqi berildi.

Kaufman diniy maktablar inqirozini tezlashtirish va ularni tugatish maqsadida ko'plab tadbirlarni amalga oshira bordi. Madrasalarni tugatgan yoshlarning ma'lum lavozimlarda faoliyat ko'rsatishi cheklab qo'yildi. Ular faqat eng quyi man-sablarga ishga olinadigan bo'ldi.

* G'ayritabaa – ushbu nom Rossiya imperiyasi hukmronligi davrida imperiya hududida yashagan musulmon xalqlarga berilgan.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1880 yil fevralida Rossiya imperiyasi Davlat kengashida o'lka mahalli axolisi farzandlarini ruslar bilan birgalikda o'qitish masalasi ko'rildi. Kengashda ko'rib chiqilgan yuzasidan maxsus qaror qabul qilindi. Bu qaror Kaufman tomonidan ham qo'llab-quvvatlandi. U "ruslar va tuzemetslarning bolalarini birgalikda tarbiyalash" masalasini o'rtaga tashladi. Uning fikricha, musulmon maktab-lari hamda rus maktablarining bir-birlaridan ajralib tu-rishi iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli bo'lgan.

1880 yilning 4 martida Turkistondagi diniy ishlar Orenburg diniy boshqarmasi nazoratidan to'laligicha ajratildi, chunki Kaufman Turkistonni maxsus loyiha asosida boshqarish-ni ma'qul deb bildi. Ana shu maqsadda "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom" ishlab chiqildi.

Rossiya imperiyasi amaldorlari, ayni paytda, maktab, madrasalarning iqtisodiy asosi bo'lgan vaqflarni cheklashga hamda ularni tugatishga doir siyosat ham olib bordi. Ana shu maqsadda Turkistonda vaqf islohotlari o'tkazildi. Islohotlar, asosan, vaqflarni tugatishga qaratilgan edi. SHu sababdan ham mus-tamlaka ma'murlari vaqf mulklarini kuchli nazorat ostiga oldilar.

Turkistonda vaqf mulklari bilan bog'liq masalalar 1886 yilda hukumat tomonidan tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom"da o'z ifodasini topdi. Nizomning 266-moddasida: "YAngi vaqflar faqat general-gubernatorning ruxsati bilan tashqil qilinadi", - deb belgilab qo'yildi. Ushbu Nizomning 267-moddasida esa: "Vaqf hujjatlarini tasdiqlash, ularni boshqarish hamda vaqf daromadlarini nazorat qilish, shuningdek, ularni taftish etish ishlari viloyat boshqarmalari zimmasiga yuklatiladi", - deyilgan edi. 289-moddada maktab va madrasalar vaqflari haqidagi mulohazalar bayon qilinib, jumladan: "Vaqf hujjatlari bo'yicha daromadlarning bir qismi, maktab, madrasa, masjid yoki boshqa bir xususiy shaxslarga berilayotgan aholi yashamaydigan vaqflar o'z daromadla-ridan vaqf mahkamasiga ajratgan miqdorda davlatga to'lay-dilar", deya ta'kidlangan edi.

Mana shu mazmundagi vaqf islohotlarining o'tkazilishi Turkistondagi diniy o'quv yurtlari, din ulamolarining iqti-sodiy jihatdan og'ir ahvolga tushib qolishiga

sabab bo'ldi. YUqorida keltirilgan modddan ham ko'rinib turibdiki, diniy maktablarga tegishli bo'lgan vaqf mulklari daromadla-rining teng yarmi hukumatga to'lanishi musulmon ruhoniyla-rida norozilikni kuchaytirib yubordi. Buning oqibati o'laroq madrasalarda diniy ta'lim-tarbiya berish ham susayib ketdi.

XIX asrning 90-yillarida madrasa, maktablar inspektori lavozimida ishlagan Nalivkin, asosan, Turkistondagi madrasalar faoliyatini o'rgandi. Uch o'quv yilida (1890 - 1893) u o'lka-ning viloyatlaridagi madrasalar vaqflarini ro'yxatga oldi. Uning' to'plagan ma'lumotlariga ko'ra, 1892 yilda Turkiston-ning Sirdaryo, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida 214 ta madrasa bo'lib, ularning 155 tasi shaharlarda, 59 tasi esa uyezd-larda joylashgan edi.

V.P.Nalivkin madrasalar faoliyatini chuqur o'rganib, ular-ning boshqaruviga oid hujjatlarni tuzdi. Ulardan biri katta mudarrislar uchun dasturilamal, ikkinchisi esa Turkistonda g'ayritabaa bilim yurtlarini ochishda qo'llaniladigan "Qoida" edi.

Turkistondagi diniy maktablar sonining 1894 - 1911 yil-larda ortib borishini 1-jadval orqali ham ko'rishimiz mumkin:

1-jadval Turkistonda diniy maktablar, muallimlar va o'quvchilar sonining o'sishi (1894- 1911 yillar)¹

№	Yillar	1894	1905	1911
1	Diniy makgablar soni	6445	6938	7070
2	Muallimlar soni	6843	6581	7143
3	O'vchilar soni	90983	85107	98469

Jadvaldagi raqamlardan ma'lum bo'lishicha, o'lkadagi diniy maktablar soni 1894 - 1911 yillar oralig'ida ortib bor gan, 1905 - 1907 yillarga kelib esa muallimlar hamda o'quvchilarning soni bir oz kamayib borgan.

Turkiston general-gubernatorlari maktab va madrasalar soni ko'payib borayotganligini hisobga olib: "Ularning ustidan bir-ikkita shaxs to'la nazorat qila

¹ Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limidagi o'zgarishlar (XX asrning 20-yillari). – T.: Akademnashr, 2010 . 11-bet.

olmaydi", - degan xulosaga kelgan. 1909 yili Turkistonda diniy maktablar ustidan doimiy nazorat olib boruvchi maxsus komissiya tuzildi. Komissiya tez orada diniy maktablar faoliyati yuzasidan tegishli qoida-larni ishlab chiqdi. Unga ko'ra, diniy maktablar faqat impe-riya ma'murlarining ruxsati bilangina ochiladigan bo'ldi. Bun-dan tashqari, ma'muriy politsiya idoralari xodimlari zim-masiga barcha diniy maktablarni ro'yxatga olish, shuningdek, ro'yxatdan o'tmagan maktablarning faoliyat olib borishlariga yo'l qo'ymaslik vazifasi ham yuklatildi.

1916yilning 1 yanvariga kelib Turkistonda 7101 ta maktab, 449 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan.

O'zbekistonda sovet hokimiyatining milliy maktab va madrasalarga munosabati

XX asr boshlarida Turkistonda keng shakllangan jadidchi-lik harakati mahalliy aholini ma'rifatli qilishga katta hissa qo'shdi. Jadidlar musulmon ruhoniylari, diniy maktab muallimlari va talabalarini o'z saflarida birlashtirdilar. Maktab va madrasalar o'quv dasturlariga dunyoviy fanlarning kiritilishida jadid ziyolilar ulkan tashabbus ko'rsatdilar. Ayniqsa, atoqli jadid ma'rifatparvari va mohir pedagog Munavvar Qori Abdurashidxonovning bu boradagi xizmatlari salmoqli bo'ldi. Munavvar Qori Abdurashidxonov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Ubaydulla Xo'jayev, Polvonniyoz Hoji YUsupov, Tavallo, CHO'lpon jadidlarning eng yorqin namoyandalaridan edi.

Jadid ma'rifatparvarlari 1917 yil fevralidan so'ng bosh-langan demokratik jarayonlarda mahalliy xalqlar siyosiy man-faatlarini himoya qila boshladilar. Ular o'lkadagi milliy birpik va jipslikni mustahkamlashga va har qanday davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo'lgan milliy madaniyatni hamda maorif ishini rivojlantirishga, taraqqiy ettirishga nstoydil bel bog'ladilar. Jadidlar tashabbusi bilan "SHo'roi Islomiya", "SHo'roi Ulamo", "Ittihodi taraqqiy", "Turon", "Milliy ittihad", "Milliy istiqlol" kabi tashkilotlar tuzildi. Bu tashkilotlarning asosiy maqsadi va bosh g'oyasi o'lkada milliy, madaniy erkinlik, demokratik tamoyillarni o'rnatishdan iborat bo'lgan.¹

¹ Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limidagi o'zgarishlar (XX asrning 20-yillari). – T.: Akademnashr, 2010 . 19-bet.

Jadid ma'rifatparvarlari mahalliy aholining siyosiy ongini yuksaltirish maqsadida Turkistonning ko'plab shaharlarida gazeta va jurnallar nashr qila boshladilar. Jumladan, Toshkentda "Xurshid", "Sadoi Turkiston", "Turk eli", "Najot", "Kengash", "SHo'roi islom" kabi matbuot nashrlari chiqarildi.

1917 yil fevralidan keyingi demokratik jarayonlar Turkistonni ham qamrab oldi. Bu jarayonlar, ayniqsa, milliy maorif sohasiga ham daxldor bo'ldi, chunki mazkur davrda ham o'lka madaniy hayotida chuqur ildiz otgan maktab, qorixona, madrasalar mavjud edi. Bu maktablar bilan birgalikda o'lkada rus-tuzem maktablari, yangi usul maktablari ham faoliyat olib borgan.

1917 yil Turkistonda milliy ta'lim tizimini tashkil etish masalasi hal qilinishi shart bo'lgan muammolar qatorida turardi. 9-14 mayda Toshkentda o'qituvchilarning I o'lka qurultoyi bo'ldi. U ta'lim tizimining ahvoli bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina masalalarni muhokama qildi hamda "Turkiston o'qituv-chilar ittifoqini" tashkil etdi.

SHuningdek, qurultoyda eski maktab, madrasalar faoliyatiga ham alohida o'rin ajratildi. Qurultoyda chiqarilgan qarorga asosan o'lkadagi barcha madrasalar uch bosqichga: quyi (adno), o'rta (avsat), yuqori (a'lo) bosqichga bo'linishi lozimligi belgi-landi. Avvalgi davrlardagidan farqli o'laroq madrasalardagi o'quv-tarbiya ishlari bevosita Mudarrislar kengashi ixtiyoriga o'tdi. Madrasalar ishini nazorat qilish esa, s'ezd qarori bo'yicha, diniy boshqarmaga tegishli deb topildi.

1917 yil 10 sentyabrda Toshkent shahar dumasi rus-tuzem maktablarini milliy maktablarga aylantirish to'g'risidagi loyihani tasdiqlagan. SHu bilan birga дума davlat mablag'i hisobidan 12 ta usuli qadim maktabi ochish haqida qaror chiqargan, lekin Turkiston an'anaviy maktablarining 1917 yil fevralidan keyin erishgan yutuqlari bolsheviklar tomonidan oktyabrda amalga oshirilgan davlat to'ntarishi natijasida barbod bo'ldi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng Turkistonda yangi sovet maktablarini tashkil etish vazifasi ilgari surildi. Bu vazifani amalga oshirishda 1917 yilda tashkil etilgan Maorif xalq komissarligining o'rni kattadir. Uning birinchi xalq komissari

K.YA.Uspenskiy bo'lgan. Mazkur komissarlik zimmasiga barcha maktablar bilan birgalikda diniy maktablarni ham nazorat qilish huquqi berildi.

Bolsheviklar hokimiyat tepasiga kelishlari bilan o'lka xalqlari milliy madaniyatini cheklash siyosati avj oldirildi. Ular avvalboshdanoq milliy madaniyat va ma'rifat o'choqlari bo'lgan eski maktab va madrasalarni tugatish yo'lini tutdilar. Ta'kidlash kerakki, sovetlar hukmronligining dastlabki yillaridan boshlab Turkistonda eski maktab va madrasalar faoliyati rasman taqiqlanmadi. SHu bois ular o'z faoliyatlarini ma'lum muddat davom ettirib keldilar, biroq mahalliy sovet tashkilotlarining ularga doir aniq ko'rsatmalari yo'qligi sababli markazning o'lka sharoitiga to'g'ri kelmaydigan qonunlariga amal qilishga to'g'ri keldi.

Sovet davlati bilan cherkovning o'zaro munosabati tamoyillari RSFSR XKSning 1918 yil 23 yanvardagi "CHerkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida"gi dekretida belgilab berilgandi. Mazkur dekret 13 moddadan iborat bo'lib, unda dinning davlatdan ajratilishi ta'kidlangan. Dek-ret e'lon qilingandan so'ng Toshkent Sovetining ijroiya qo'mitasi Turkiston o'lkasi o'quv yurtlarining bosh inspektoriga o'lka-ning barcha o'quv muassasalarida "ularda diniy va aqoid predmetlar o'qitishni to'xtatish haqida" farmoyish berishni taklif etdi. Maktab cherkovdan ajratildi. Xususiy o'quv yurtlarida ham diniy ta'limotlarni o'qitish taqiqlandi. Maktablarda din o'qitish uchun barcha kreditlar yopib qo'yildi va diniy ta'limotdan dars beruvchi o'qituvchilar har qanday ta'minotdan mahrum bo'ldilar. Barcha dinlarga mansub o'quv yurtlarining binolari xalq mulki sifatida mahalliy sovetlarning yoki Maorif xalq komissarligining ixtiyoriga o'tkazildi.

Dekretni bajarish bahonasida 1918 yilning fevralidayoq, ya'ni Turkiston Respublikasining siyosiy tizimi rasmiy ravishda tashkil etilmasdan avval asosan yevropalik millatlar vakillaridan iborat, ular boshchilik qilgan sovetlar hamda bolsheviklar tashkilotlari vaqf yerlarini musodara qilish bo'yi-cha Rossiya imperiyasi davrida boshlangan ishni oxiriga yetkazdilar. Bu bilan madrasalar va eski maktablar og'ir ahvolga solib qo'yildi.

1918 yil 24 avgustda RSFSR Adliya xalq komissarligining qarori bilan "CHerkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risida"gi dekretni

hayotga tatbiq etish tartibi to'g'risida yo'riqnoma tasdiqlandi. U dekretning asosiy qoidalarini aniqlashtirdi. Yo'riqnomada cherkovning mulklari to'g'risida shunday deyilgan edi: "CHerkov va diniy jamoalarning xudoga sig'inish maqsadida maxsus belgilanmagan mulklari, shuningdek, sobiq sig'inish boshqarmalari mulklari, binolar, yerlar, o'rmonlar, fabrikalar, baliqchilik korxonalari, zavodlar, hovli-joylar, mehmonxonalar, kapitallar va barcha» umuman, foyda keltiradigan mulklar, ular nimadan iborat bo'lma-sin, hozirga qadar sovet qonunchiligi ixtiyoriga olinmagan bo'lsalar, nomlari qayd etilgan jamoalar va sobiq idoralardan shoshilinch ravishda tortib olinadi".

Jadidchilik harakatining yorqin namoyandasi Munavvar Qori Abdurashidxonov bu haqda to'xtalib: "Yerli maktablarda din darslarini o'qituv va maktabda ibodatlar qildiruv man qilin-g'on holda, yolg'uz musulmonlar uchun istisno tariqasida din darslarini bermoqg'a ruxsat etilub, chiqarilg'on mazkur buyruqyo xalq orasiga tamom tarqalmagan va yoxud tarqalg'an bo'lsa ham, muxtasar bo'lg'onligi uchun mazmuni yaxshi anglashilmag'on", - deb yozgan edi. Xuddi shu mazmundagi buyruq 1918 yil 9 noyabrda Goshkent shahar maorif bo'limi tomonidan ham chiqarildi.¹

Sovet hukumatining milliy maktab, madrasalarga nisbatan aniq ishlab chiqilgan siyosati bo'lmaganligi sababli bu maktablar ustidan bir vaqtning o'zida bir necha komissarlik nazorat olib bordi. Xususan, Turkiston Millatlar xalq komissarligi-ning nazorat doirasiga eski maktablar va madrasalar kirmagan bo'lsada, mazkur komissarlik o'zining 1918 yil 27 noyabr-dagi sirkulyari bilan oblastlardagi Millatlar ishlari bo'lim-lariga oblast aholisi maorifining bir tekis rivojlanishi-ni kuzatib borish, ularni eski maktablardan boshlang'ich umum-ta'lim maktablariga o'tishga tayyorlash va ko'maklashish vazifasini yukladi. Barcha eski usul maktablariga "usuli savtiya"ga o'tishni taklif etdi. SHuningdek, bu muassasalarning vaqf mulk-lari ustidan nazorat olib borish hamda madrasalarni isloh qilish haqidagi masalani ishlab chiqdi.

¹ Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limidagi o'zgarishlar (XX asrning 20-yillari). – T.: Akademnashr, 2010 . 35-bet.

SHunday qilib, masjidlar, shuningdek, madrasa, maktablar hamda boshqa diniy, madaiiy-ma'rifiy muassasalar vaqflar hisobidan kelgan mablag'lar hisobiga yashagan,, Vaqflarni natsionalizatsiya qilish masjid, madrasa, maktablarni moddiy bazasidan mahrum qilar edi va bu hol faqat ruhoniylardagi-na emas, balki masjidga qatnovchilar, madrasa talabalari, maktab o'quvchilarida ham norozilik tug'dirdi. SHunga qaramas-dan, diniy masalani, xususan, vaqf masalasini hal qilishga ehtiyotkorona, diqqat bilan yondashilmadi, vaqflarga munosabat sohasida o'z vaqtida to'g'ri siyosat ishlab chiqilmadi.

Turkistonda diniy maktablar faoliyatini tugatish to'g'risidagi masala 1919 yil 20 mayda Turkiston Maorif xalq komissarligi hay'ati majlisida ko'rildi. Unda komissar Abdusattorov, hay'at a'zolaridan Gorkin, Kostetskiy, Bogat, Miromov, Suxanov, To'xtaboyev, Xojikovlar ishtirok etdilar. Mazkur majlisda Turkiston xalq maorifi bo'limi mudirining eski makgablar va ularni yopish, mahalliy muallimlar va ular uchun uyezdlarda yozgi pedagogik kurslar tashkil qilish haqidagi ma'ruzasi ham tinglandi.

Markaz tomonidan qabul qilingan qarorlar eski maktab va madrasalarning faoliyat ko'rsatishiga to'sqinlik qildi. Sovet amaldorlari ular faoliyati to'g'risida turli xil salbiy fikr-mulohazalarni ilgari surdilar. Toshkent uyezd xalq ta'limi bo'limi mudirining Ishchi va dehqon deputatlari Soveti ijroiya qo'mitasiga yo'llagan ma'ruzasida (1918 yil 13 noyabr): "Tuzem (mahalliy) qishloqlarida to'ntarishgacha bo'lgan maktablar: masjidlar qoshidagi ham eski usul, ham yangi usul maktablar, madrasalar faoliyat ko'rsatmoqdalar va bunda unisi ham, bunisi ham davr talablariga ham, isloh qilingan maktab dasturlariga ham javob bermaydilar, shuning uchun barcha aholining mahalliy punktlarida yangi maktablar ochish kerak".¹

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida respublika xalq ta'limi organlari eski usul maktablarini isloh qilish va ularni sovet maktablarining dasturiga o'tkazishga intildilar. Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligining 1919 yil 14 dekabrda farmoyishida shunday ko'rsatma berilgan, edi: " Turkiston Respublikasida omon

¹ Komilov O. O'zbekiston milliy ta'limidagi o'zgarishlar (XX asrning 20-yillari). – T.: Akademnashr, 2010 .55-bet.

qolgan hayotiy manfaatlarga ega bo'lgan begona konfessional (diniy) maktablar, eski usul, ingi usul maktablari inqilobdan ilgari hukumat va mahalliy mpnbalardan olingan subsidiya (pullar)dan foydalanganlar. Hozirgi davrda bu maktablarga subsidiya berish mumkin emas. Xalq maorifi bo'limlariga mahalliy sovet organlari orqali mna shunday turdagi barcha maktablarga ular isloh etilishni va umumdavlat turini qabul qilishni xohlaydimi degan so'rov bilan murojaat qilishni taklif etamiz".

Sovet organlarining eski usul maktablariga ana shunday munosabatda bo'lganliklari natijasida madrasa va maktablar soni ham, ulardagi o'quvchilar soni ham keskin kamaydi. Toshkent Eski shahar xalq maorifi bo'limi mudiri Tillaxonov Turkiston Respublikasi xalq maorifi bo'limlari mudirlarining 1920 yil 29 mayda bo'lgan I s'ezdida shunday degandi: "20 ga iqin eski usul maktablari mavjud. Ularning har biridagi o'quv-chilar 5, 7, 10, 15 taga yetmaydi. Ular asta-sekin tugab borayapti. Mazkur maktablarga biz tekkanimiz, yopib qo'yganimiz yo'q va ularni qo'llab-quvvatlaganimiz ham yo'q. Madrasalarda 75 ta uquvchi bor, bundan ortiq emas".

1920 yilning iyun oyida Turkiston Respublikasidagi Xalq Miorifi bo'limi mudirlarining s'ezdida ham eski maktab, mpdrasa va qorixonalar masalasi muhokama qilindi. Bu boradaGi muammolar to'g'risida Turkiston Respublikasi Maorif xalq komissarligi turk seksiyasining a'zosi, akademik bo'limi boshlig'i Munavvar Qori Abdurashidxonov ma'ruza qildi. U maktab, madrasalarning paydo bo'lishi, ularning faoliyati, maqsadi, vazifalari hamda hukumatning xalq maorifi tizimiga nisbatan olib borgan siyosati to'g'risida batafsil ma'lumot berdi, o'z nutqida madrasa va maktablardan xalqqa ziyo tar-qntishda foydalanish muhim ahamiyatga egaligini ta'kidladi. Jumladan, ma'ruzachi quyidagilarga alohida urg'u bergandi:

- 1)vaqflar diniy va ijtimoiy xizmat uchun emas, xalqning madaniyatini yuksaltirish uchun tashkil etilishi kerak;
- 2)milliy maktablar, madrasalar Turkiston xalqlarining umumiy ta'lim, fan, san'ati manbaidir;
- 3)milliy maktab, madrasalarga vaqflarning diniy deb tariflanishi eski chor

hukumati siyosatiga asoslangan;

- 4)vaqflardan tushayotgan mablag'lar va hukumat tomonidan Pvriladigan mablag'lar, qurilish ashyolari asosida minglab m«kgab va madrasalarning faoliyatini o'zgartirish, ularni dipiy muassasalardan madaniy-ta'lim manbalariga aylan-?irish, yangi dastur asosida o'zgartirish zarur.

YUqoridagi vazifalarni amalga oshirishda mahalliy jadid-parning o'rni katta bo'ldi. Ular ta'lim tizimini isloh qilish-NING ma'lum dasturlarini ishlab chiqdilar, biroq ushbu jara-ynmnrni amalga oshirishga sovet hukumati avvalboshdanoq qarshilik ko'rsatdi.

Musulmon maktablari faoliyatiga XX asrning 20-yillarida V.I.Lenin tomonidan ishlab chiqilgan "madaniy inqilob" deb nomlangan siyosat ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu siyosat, o'z navbatida, Turkiston xalqlariga "yangi madaniyat"ni singdirish va xalqning qadimiy madaniyatidan uning asl moxiyati bo'lgan milliylikni chiqarib tashlashga qaratilgan edi. "Madaniy inqi-lob" siyosati zaminida o'sha davrda paydo bo'lgan madaniyatda-gi "proletkult" (proletar madaniyati) yo'nalishi yotardi. "Pro-letkult"chilar, asosan, yevropalik aholi vakillaridan iborat bo'lib, ular mahalliy aholining milliy urf-odat va qadriyat-larini tan olmaganlar. O'z-o'zidan ayonki, ular o'z faoliyati da-vomida diniy maktablarga ham qarshi turgan.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki, Roosiya imperiyasi davrida Turkistonning barcha general-gubernatorlari diniy maktablarni nazoratda ushlab turish, ma'lum tarzda ruslashtirish siyosatini olib borganlar. Mustamlaka mamuriyatining har qanday cheklash va tazyiqlariga qaramay, diniy maktablar o'z faoliyatini davom ettirib, ularning soni yildan-yilga ortib bordi. Urf-odat, an'analarga muvofiq mahalliy aholi o'z farzandlarini, asosan, diniy maktablarda uqitar edi.

SHu bois Turkistonda oktyabr to'ntarishiga qadar maktab va madrasalar deyarli erkin tarzda faoliyat olib bordi. 1917 yil oktyabrdagi davlat to'ntarishidan so'ng sovet hukumati tomonidan ularning faoliyati cheklab qo'yila boshlandi. Maktab va madrasalar ustidan bir paytning o'zida bir necha komissarlik-lar nazorat

olib bordi. Xususan, Millatlar xalq komissarligi, Maorif xalq komissarligi o'z faoliyatining dastlabki kunlaridanoq maktab va madrasalar huquqlarini cheklashga hamda vaqf mulklarini tortib olib, davlat ixtiyoriga o'tkazishga in-tildilar. 1918 yil boshida RSFSR XKS tomonidan "CHerkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish haqida"gi dekretning chiqarilishi diniy maktablarning faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Dekret e'lon qilingandan so'ng maktab, madrasalar soni, ulardagi o'quvchilar soni ham kamayib bordi.

Sovet hukumatining zo'ravonlik va tazyiq o'tkazishiga qaramay, eski maktab va madrasalar sovet hokimiyatining dastlabki yillarida ham xalq orasida o'z mavqeini saqlab qoldi. Bolshe-viklar tomonidan madrasa, maktablar vaqf mulklarining g'ayriqonuniy tarzda talon-toroj qilinishi hamda ularning davlat ixtiyoriga o'tkazilishi mahalliy aholining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Ana shuning oqibatida musulmon ruhoniylari va ko'plab ziyolilar XX asrning 20-yillariga kelib mustamlakachilik tuzumiga qarshi qaratilgan hamda o'lkada avj olib borayotgan qurolli qarshilik harakatiga qo'shilib ketdi. Sovet hukumati norozilik harakati avj olganligidan tashvishga tushib, mahalliy aholi talablarini hisobga olishga majbur bo'ldi. Hukumat madrasa, maktablar vaqf mulklarini avvalgi egalari-ga qaytarish masalasini ko'rib chiqib, bir nechta qarorlar qabul qildi. Jumladan, "Turkiston Respublikasi madrasa va masjid-lariga vaqflarni qaytarish haqida"gi dekret mahalliy aholi hayotida ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi. Dekret asosida madrasa-larning qaytadan tashkil etilishi boshlandi, ulardagi o'quv das-turlariga o'zgartirishlar kiritildi. Maktablar ham ma'lum ma'noda erkin faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Diniy o'quv muassasalari ishiga sovet organlarining doimiy ravishda aralashishlariga barham berildi. Maktab va madrasalarning soni asta-sekinlik bilan ortib bordi. Ularda tah-sil oluvchi talabalarning soni ham orta boshladi.

SHubhasiz, bu hol sovet hukumati va kommunistik partiyaning butun mamlakatda yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, Mynaviy sohadagi og'ir inqiroz holatlarini hisobga olishi, jumpadan, Turkiston o'lkasidagi ma'lum shart-sharoitlarga etibor qaratishga majbur bo'lganligi natijasi edi, xolos.

1.2. O'zbekiston mustaqilligi arafasida ta'lim muammolari

Prezidentimiz I.A.Karimovning “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobining yana bir muhim ahamiyatli jihati shundaki, unda 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida O'zbekistondagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy ahvol chuqur tahlil etilib, mavjud muammolar bilan birga bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlar mantiqiy izchillikda aks ettirilgan. O'sha murakkab bir davrda respublika rahbari jamiyat hayotiga kompleks yondashib, boshqa o'tkir masalalar singari sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan, madaniyat muhim sohasidagi muammolarga ham alohida e'tibor qaratgan, ularni samarali hal etish uchun dolzarb g'oya va fikrlarni o'rta tashlagani uning uzoqni ko'ra bilish qobiliyati, bilimi, metindek irodasi va jasurligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, bu davrda oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa hayotiy muhim tovarlarning taqchilligi odatiy holga aylanib, aholini ular bilan ta'minlash muammolari keskinlashgan edi. Orol dengizining falokati Qoraqalpog'iston janubi uchun borib turgan ekologik kulfat bo'lib, endi Orolni qutqarib qolish uchun zudlik bilan favqulotda chora-tadbirlar ko'rish talab etilardi.

Buning ustiga, viloyatlarda, ayniqsa qishloqlarda sog'liqni saqlash ishlari o'z holiga tashlab qo'yilgan edi. Bu borada davlatimiz rahbari “Samarqand oblast ijroiya komitetining kasalxona va poliklinikalar qurilishiga munosabatini odamlar sihat-salomatligiga sovuqqonlik va mas'uliyatsizlarcha munosabatning yorqin misoli desa bo'ladi. Bu viloyat kasalxona va poliklinikalar bilan ta'minlanish bo'yicha eng so'nggi o'rinda turishiga qaramay, oblast rahbarlari ana shu maqsadlar uchun ajratilgan 10 million so'm pulning o'zlashtirilishini barbod etishadi.

Holbuki, ana shu mablag'lar evaziga 900 bemorga mo'ljallangan kasalxona qurish mumkin edi. Huddi ana shu oblastda bolalar o'limi juda ko'p bo'lishiga qaramay, 1979 yildan buyon har xil dardga chalingan bolalar davolanadigan kasalxona qurilishi nihoyasiga yetmay qoldi”.

Qoraqalpog'iston ASSR, Toshkent shahri, Toshkent, Sirdaryo oblastlari va boshqa oblastlardagi ish ham talabga javob bermasligi"ni yurtboshimiz ochiq bayon qiladi.

SHuningdek, muallif bu boradagi vazifalar xususida to'talib, quyidagilarni ta'kidlaydi: "E'tiborni ijtimoiy masalalarga qaratish haqida gapirar ekanmiz, sog'liqni saqlashni yaxshilash birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash zarur. Bu tarmoq moddiy bazasining nihoyatda qashshoq ekanligi ustiga, bizda bu soha yaxshi tashkil etilmagan va samarali foydalanilmayotir. Millatning zurriyod fondini, hech mubolag'asiz aytish mumkinki, halokatdan saqlab qolish uchun keng ko'lamdagi tadbirlarning katta kompleksini amalga oshirish kerak bo'ladi. Muammo allaqachon viloyatlar doirasidan chiqib, umumdavlat vazifasi darajasiga ko'tarildi. Ammo bu sohadagi ko'pchilik rahbarlarning tashvishlanayotganliklari uncha sezilmayotir. Har holda, Sog'liqni saqlash ministrligidan ham, hukumatdan ham hozirgacha e'tiborga sazovor bo'lgan asosli takliflar tushayotgani yo'q.

Mahalliy va respublika darajasida tibbiy muassasalarni tashkil etishning puxta va to'laqonli sistemasini ishlab chiqish, sharoitimizni hisobga olgan holda, ilg'or chet el tajribasidan foydalanishimiz kerak.

Ixtisoslashgan yirik davolash markazlari qishloq va shahar kasalxonalari keng shoxobchalari bilan qo'shilib, ana shunday sistemaning asosiy bo'g'iniga aylanishi kerak. Respublikada bunday sistemani vujudga keltirishga asos solindi. YAqin yillarda kardiologiya markazini, ko'z mikroxirurgiyasi mintaqaviy markazini, onalik va bolalikni muhofaza qilish markazini, urologiya markazi va shu singarilarni yaratish mo'ljallangan.

SHu bilan bir qatorda rayonlar, shaharlar, yirik posyolkalarda keng sohali kasalxonalar, poliklinikalar, feldsherlik, akusherlik punktlari, tug'uruqxonalarning keng shoxobchalarini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, joylarda uchastka kasalxonalarini qayta tiklash kerak.

Biz sog'liqni saqlashga mablag' manbalarini izlab topishga yangicha yondashmog'imiz zarur. Sog'liqni saqlashni tashkil etishning sug'urta shakllari

singari manbalari haqida ham jiddiy o'ylab ko'rish lozim. Bir narsa ravshanki, sog'liqni saqlash faqat byudjet mablag'lari hisobiga rivojlana olmaydi. Sog'liqni saqlashni rivojlantirish fondini tashkil etish, unga katta foyda olayotgan korxonalar, xo'jaliklar, kooperativlar, jamoat tashkilotlaridan pul o'tkazish masalasini tezda hal etish g'oyat muhimdir.

Yana bir muhim masala. Oila vrachi vazifasini qayta tiklash kerak. Bu haqda ko'pdan beri gapirib kelinmokda, lekin ko'zga ko'rinarli siljishlar yo'q. Bu masalani hal etish, bunday vrachlar tayyorlashni tashkil etish va ularga ish sharoitini yaratish" payti kelganligi ta'kidlanadi¹.

Aynan o'sha davrlarda YUrtboshimizning aholi salomatligini yaxshilash borasidagi tinimsiz izlanishlari, ko'rgan chora-tadbirlari natijasida 3000 bemorga mo'ljallangan kasalxonalar, har smenada 8 ming betob bemorni qabul qilishga mo'ljallangan poliklinikalar rejaga qo'shimcha tarzda foydalanishga topshirilgan edi.

Bu ishlar yirik tadbirlarning boshlanishi edi. Ular istiqlol yillarida sohada erishilgan ulkan yutuqlarimizning poydevori bo'ladi, desak, mubolag'a bo'lmas.

Ma'lumki, xo'jalik organizmiga mustabid tuzum davrida o'r mashib qolgan illatlar O'zbekiston iqtisodiyotiga ham jiddiy zarar yetkazar edi. Yo'l qo'yilgan qo'pol xatolar, nuqsonlar, madaniy xo'jalik yuritish prinsiplarining to'g'ridan-to'g'ri buzilishi natijasida iqtisodiyotning eng muhim yo'nalishlari barbod bo'la boshladi.

80-yillarning o'rtalarida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha respublika Ittifoqda oxirgi o'rinlardan biriga tushib qolgan edi. Aholi jon boshiga milliy daromad O'zbekistonda o'rtacha Ittifoq darajasiga qaraganda ikki barobar kam edi. YUrtimiz aholisining mamlakatdagi boshqa mintaqalarga nisbatan moddiy va ijtimoiy ne'matlar bilan ta'minlanish darajasidagi farq g'oyat ortib ketgan edi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning mustamlakachilik rejasiga ko'ra respublika iqtisodiyoti faqat birtomonlama, "xomashyo" yo'nalishida

¹ Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 205-206-betlar.

rivojlanishi oldindan belgilab qo'yilgan edi. Natijada respublikada sanoatning xomashyoga birlamchi ishlov berish bilan bog'liq tarmoqlari ko'proq rivoj topdi. Sanoatdagi tayyor mahsulotning salmog'i umumiy mahsulotlarning faqat 25 foizini, xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish esa o'rtacha Ittifoq darajasining faqat 40 foizini tashkil qildirdi. Iqtisodiyot tizimidagi va ishlab chiqarishning ixtisoslashuvidagi xatoliklar O'zbekistonda ekologik ahvolning ortishiga, moddiy va moliyaviy ahvolning yomonlashuviga olib keldi. Sanoat ishlab chiqarishining ko'payishi asosan paxta tozalash, yoqilg'i sanoati, resurs sohalari, qora va rangli metallurgiya tarmoqlari xisobidan ta'minlandi. Qora va rangli metallurgiya tarmoqlarining ulushi 60–65 foizga yetdi. Holbuki, mashinasozlik va metallga ishlov berish salmog'i ko'pi bilan 2 band yuqori ko'tarilib, 16 foizdan ko'proqni tashkil etgan edi. Markazning o'ta adolatsiz, faqat o'z manfaatini ko'zlab yuritgan siyosati natijasida mintaqalararo nomaqbul aloqalar yuzaga keldi, bunday sharoitda O'zbekistondan uning milliy manfaatlariga zarar yetkazgan holda ko'proq miqdordagi xomashyo va chala mahsulotlar olib ketilardi, chetdan esa asosan asbob-uskunalar va tayyor buyumlar keltirilar ediki, bu boshqa ittifoqdosh respublikalar bilan o'zaro munosabatlarda ziddiyatlarni chuqurlashtirar, joylarda ijtimoiy, milliy tanglikni vujudga keltirardi.

Davlatimiz rahbari respublikaga rahbar bo'lib tayinlangan kundanoq aholi salomatligi, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, madaniyat va sport ishlariga muhim e'tibor qaratdi. Chunki, respublikada ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari juda og'ir ahvolga tushib qolgan edi. Maktab va kasalxonalarning 60 foizi nobop binolarda joylashtirilgan edi. Insonning har tomonlama uyg'un kamol topishi, uning shaxs sifatida ma'naviy rivojlanishi u yoqda tursin, ko'pincha yashash uchun kerak bo'lgan eng oddiy narsalar ham yetishmayotgan edi.

YUrtimizda ilm-fan rivojiga ham muhim e'tibor qaratildi. Respublikamiz ilm-fani ham boshqa sohalar kabi Markaz manfaati va mafkurasiga xizmat qilar edi. Markazdan bo'lgan tinimsiz tazyiqlarga qaramay, 80-yillarning ikkinchi yarmida O'zbekiston fanida bir qator o'zgarishlar sodir bo'ddi. O'zbekiston Fanlar

akademiyasi, oliy o'quv yurtlari tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, ilmiy laboratoriyalar o'z faoliyatini takomillashtirishga harakat qildi. Bu davrda tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha jiddiy izlanishlarga qo'l urilayotgan edi. Xususan, 1987 yilda Toshkent viloyatining Parkent tumanida nihoyatda noyob ilmiy-eksperimental majmua – bizerkal optika – energetika qurilmasi foydalanishga topshirildi.

Ayniqsa, astronomiya sohasida katta ishlar amalga oshirildi. 80-yillarning o'rtalaridan boshlab Astronomiya instituti olimlari fransuz olimlari bilan hamkorlikda Quyoshning global tebranishini tadqiq etish sohasida keng ko'lamli ishlar olib bordilar. Quyosh faoliyatini tekshirish sohasida YU.Solonim, I.Sattorov, Z.Korobova, SH.Egamberdiyev kabi olimlarning xizmati katta bo'ldi. 1986 yilda esa yuksak energiyali astrofizika bo'limi tashkil qilindi, unda gamma-astronomiya sohasida tadqiqotlar o'tkazish ishlari boshlab yuborildi. SHuningdek, biologiya, kibernetika, yadrofizika, kimyo va meditsina fanlari sohalarida ham bir qator muhim va dolzarb muammolar ustida ilmiy izlanishlar olib borildi.

Islom Karimov respublika rahbari bo'lib faoliyat boshlashi bilan falsafa, tarix, ayniqsa, Vatan tarixini o'rganish, uning uslubiyatiga, «oq dog'lari»ga doir masalalar faol muhokama etila boshlandi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda jamiyat va shaxs masalalari, madaniy meros, til muammolari kabi masalalarni hal etishga intilish yuzaga keldi. Bu masalalarga bag'ishlangan ilmiy, ayniqsa, publitsistik maqolalar gazeta va jurnallar sahifalarida muntazam bosilib turdi.

Biroq, kommunistik mafkura yakka hokimligi sharoitida mazkur masalalarni to'liq hal etish mumkin emasdi. Mustabid tuzum milliy o'zlikni anglash jarayoniga tish-tirnog'i bilan qarshilik ko'rsatar, jamiyatdagi mavjud ziddiyatlar, nuqsonlar, illatlar aslida mustabid sovet tuzumi, kommunistik mafkura yakkahokimligi tufayli yuzaga kelayotganini yashirishga, niqoblashga urinar edi.

Ilm-fandagi bunday vaziyatni ko'ra olgan YUrtboshimiz dastlabki oylardayoq bu soha rivojiga va uning xalqimiz, yurtimiz manfaatlari uchun xizmat qilishiga muhim e'tibor qaratdi. 1989 yil 28 noyabrda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasida bo'lib o'tgan uchrashuvda so'zlagan nutqida I.A.Karimov ilm-fanni

yuksaltirish borasida mavjud muammo va vazifalarga atroflicha to'xtalib o'tdi. Unda fan sohasidagi kadrlarni jadal ko'paytirish va yoshartirish uchun, intellektual imkoniyatlarni keskin darajada oshirish uchun respublika rahbariyati zarur mablag'larni, jumladan, valyuta mablag'larini ajratishga, tegishli tashkiliy masalalarni hal qilishga tayyor ekani ta'kidlandi.

Bu borada respublika rahbariyati tomonidan 1990 yildan boshlab mamlakat va chet ellardagi katta ilmiy markazlar doktoranturalaridan va stajirovka o'tash uchun yosh olimlarimizga yuzta o'rin ajratish masalasini SSSR Fan va texnika davlat komiteti oldiga qo'yilishi ulkan amaliy tadbirlarning debochasi edi. Mazkur taklifda biotexnologiya, molekulyar genetika, robototexnika sistemasi, mashinasozlik texnologiyalari, demografiya iqtisodiyoti kabi sohalarda, fan-texnika taraqqiyotining boshqa asosiy yo'nalishlarida ilmiy kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish masalasi ham ilgari surilgan edi. Unda ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, qolaversa olimlar faoliyatini respublika xo'jaligi taraqqiyoti uchun ustuvor bo'lgan sohalarga yo'naltirish belgilandi.

Fanga iste'dodli yoshlarning kirib kelishini ta'minlash uchun oliy maktabning, hatto, umumiy ta'lim maktablarining faoliyati takomillashtirilishi rejalashtirildi. Ushbu rejalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ❖ iste'dodli va iqtidorli yoshlarni izlab topish, qo'llab-quvvatlash hamda ularning qobiliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish;

- ❖ maxsus respublika fondini tashkil etish hamda iqtidorli bolalar uchun maktablar va internatlar tarmog'ini vujudga keltirish, yosh olimlar uchun turli mukofotlar ta'sis etish;

- ❖ fanni mablag' bilan ta'minlash muammolarini ham puxta ishlab chiqish, yangi institutlar tashkil etish, mavjud institutlarni o'zgartirish;

- ❖ suv muammolari va atrof-muhitni muhofaza qilish instituti va boshqa bir qancha institutlarni tuzish;

- ❖ respublikada kami bilan 2010 yilgacha ilmiy siyosat konsepsiyasini hamda O'zbekistonda fan va texnikani rivojlantirishning tegishli dasturini ishlab chiqish.

O'zbekiston rahbari jamiyat taraqqiyotida olimlarning o'rni masalalasiga to'xtalib o'tar ekan, "Hozir har bir olim, ayniqsa, jamiyatshunos olim o'z ilmiy faoliyatini respublika muammolariga, o'z xalqi va butun mamlakatimiz takdiriga muvofiqlashtirishi lozim. Ravshanki, bunday intilish jamiyatshunos olimlar ilmiy va ijtimoiy faoliyatining birligi xarakterini, ularning respublika ijtimoiy hayotidagi amaliy ishtirokini belgilab berishi kerak"¹, deb ta'kidlash bilan birga, ilmiy xodimlar o'z fikrlarini erkin, mas'uliyat bilan ifoda etishlari uchun sharoit yaratish, ularning ijodiy va ijtimoiy faolligini rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni bajarish uchun davlat buyurtmalarining tanlov sistemasini shakllantirishni ham bayon etdi.

80-yillarning oxirida O'zbekiston jamiyatida mavjud muammo va qiyinchiliklarga tanqidiy baho berish, amaliy taklif va harakatlarga yangi kuch-qudrat bag'ishlashga imkon beradigan o'zlikni anglash omilini shakllantirish va uning muhim amal qilishi g'oyat zarurligi sezilib turardi.

Qisqa muddatda I.A.Karimov tashabbusi bilan ko'p millatli respublikamizda millatlararo munosabatlarni mustahkamlash masalasi eng dolzarb va o'tkir muammolardan biri sifatida kun tartibiga qo'yilib, bu borada ham bir qator reja va tadbirlar ishlab chiqishga e'tibor qaratildi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda milliy o'zlikni anglash jarayoni nihoyatda jo'shqin ravishda kuchayib borayotgan edi. Lekin ana shu jarayon bilan bir vaqtda salbiy hodisalar ham yuz bermokda edi. Ana shunday jarayonda milliy o'zlikni anglashda buzilishlarga olib kelayotgan sabablarni, omillarni aniqlab, ana shu jarayonlarga ijobiy ta'sir o'tkazish yo'llarini belgilash, milliylik va baynalmilallik uyg'un bo'lishiga erishish kerak edi.

Bu borada muallif o'z fikrini bayon etar ekan, "... biz tarixiy xalq an'analari, urf-odatlari va marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur", deb qayd etadi.

YUrtboshimizning ziyolilarimizga bo'lgan ishonchi "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobidagi quyidagi so'zlarda o'z ifodasini topgan: "Sira mubolag'asiz aytish mumkinki, xalqni ma'naviy jihatdan

¹ Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011. – 89-bet.

sog'lomlashtirish sohasidagi ... katta ishda ziyolilarimiz asosiy, hal etuvchi o'rinni egallashlari darkor. Ziyolilarning so'zi odamlarning ongu shuuri va qalbida hamisha aks-sado beradi.

Bugungi murakkab, ziddiyatli, turli larzalar chiqib turgan va mojarolar bo'lib turgan vaziyatda ziyolilarimizning oqilona so'zlari, xayrli ishlari odamlar va xalqlar o'rtasida insonparvarlik va ma'naviy normalarni saqlab qolishda eng muhim shartdir.

Respublika Fanlar akademiyasi olimlaridan umidimiz katta. Buning boisi bor, albatta. Respublikamizni inqirozdan chiqarishning yagona demaganda ham, asosiy yo'li ilm-fanning madadiga tayanishdadir. Fan-texnika taraqqiyotiga, yangi g'oyalar va kashfiyotlarga suyanishdadir.

Olimlarimizni tanqid qilish ham mumkin edi, bunday tanqid, hatto, an'anaga ham aylanib ketgan edi. Lekin men ularni qo'llab-quvvatlamoqchiman. Chunki, shunga imonim komilki, respublikamizda anchagina yetuk olimlar bor, konkret ishlar ham qilingan, olimlarimiz xalq oldidagi mas'uliyatini ham tushunib turibdilar. YAqinda bo'lib o'tgan uchrashuvlar chog'ida ham bunga ishonch hosil qildim.

G'ayrat-shijoat va ijodkorlik ko'proq bo'lsa deymiz. YOsh olimlarga yordam beraylik. SHunday qilsak, O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida durust natijalarga erishamiz. Biz bu borada yordamni bunday buyon ham hech ayamaymiz".

Prezident I.A.Karimov jamiyatshunoslik fani va jamiyatshunos olimlar faoliyatiga baho berib, bu borada quyidagi vazifalar turganini belgilab beradi.

"Biz jamiyatshunoslikning roliga yangicha nazar solishimiz zarur. Uzoq vaqtdan buyon jamiyatshunoslik fani sotsializm to'g'risidagi dogmatik tasavvurlar xizmatida bo'ldi, siyosat va mafkuraning izidan bordi. Mamlakat va respublikamizda sodir bo'layotgan jarayonlarni teran ilmiy idrok etish zarur.

Biz ko'ppartiyaviylik sharoitidagi ijtimoiy hayot qonuniyatlari tahlili dasturiga ega emasmiz. Jamiyatshunoslar ko'p ukkladlik mavjud bo'lgan sharoitda,

boshqariladigan bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlar to'g'risidagi tasavvurlarni bayon etib berishgani yo'q.

Millatlar va millatlararo munosabatlar ravnaqi, respublikalarning siyosiy suvereniteti va iqtisodiy mustaqilligi, ishchilar sinfining milliy otryadi shakllanishi muammolari va boshqa ko'p muammolar chuqur tahlil etilishi kerak"¹.

I.A.Karimov o'sha davrdagi millatlararo munosabatlaridagi ahvolni tahlil etib, "Bizning ko'p millatli respublikamizda millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish muammosi eng dolzarb va o'tkir muammolardan biridir... Hozir gap ana shu sohaga taallukli keng doiradagi masalalarni o'z ichiga oladigan ilmiy tadqiqotlarning uzoq muddatga mo'ljallangan programmasini ishlab chiqish va amalga oshirish to'g'risida bormoqda" deb ta'kidlaydi².

SHu munosabat bilan quyidagilarga e'tibor qaratadi.

Biz tarixiy xalq an'analari, urf-odatlar va marosimlari asosida odamlar ongini shakllantirish omillarini kuchaytirishimiz zarur. YAshirishga hojat yo'q, biz shubhali shiorlarga berilib, ma'naviy madaniyatimizni oziqlantirib turgan ildizlarni qirqib tashlashga o'nlab yillarni sarfladik. Hozir buning oqibatlarini sezib turibmiz. Madaniyat manbalariga qaytish g'oyat qiyin kechmoqda, odamlarning bu jarayonga munosabati o'zgarmoqda.

Respublikada turli millatga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ko'zga tashlanayotgan muayyan keskinlik sababi, bizningcha, millatlararo munosabatlarning ma'naviy-axloqiy ta'minlanish darajasi yetarli darajada yuqori emasligidadir...

Millatlararo munosabatlarni rivojlantirish jarayonlarini tadqiq etish dogmatik qarash va eski qoliplardan xoli etilishi kerak, biz yangi g'oyalarni, qarashlar va yondashuvlarni kutmoqdamiz. Bizga tarix to'g'risida, millatlararo munosabatlar sohasidagi munosabatlarni rivojlantirishning real jarayonlari haqida, hozirgi vaqtda ko'zga tashlanayotgan qarama-qarshi manfaatlarning to'qnashuvi vujudga

¹ Islom Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: "O'zbekiston", 2011. – 228-bet.

² O'sha manba, – 90-bet.

kelishiga nimalar sabab bo'lgani to'g'risida achchiq bo'lsa ham, xolis va to'la haqiqat kerak.

Jamiyatshunoslar O'zbekiston tarixining ko'pgina sahifalarini qayta bitishlari, chunonchi, chorizm yillarida O'rta Osiyo xalqlarining milliy ozodlik harakati, 1920-1930 yillardagi adabiy-g'oyaviy jarayonlar, kollektivlashtirish va boshqa hodisalarga hujjatlar asosida nazar solishlari kerak. Behbudiy, Usmon Nosir, Cho'lpon, Fitrat va boshqalarning ijodi va dunyoqarashini ham teran va xolis tadqiq etish zarur bo'ladi. Bahslar va shubhalardan cho'chimaslik kerak. Haqiqatni kollektiv bo'lib ro'yobga chiqarish, buning uchun ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, «davra suhbatlari» o'tkazish kerak.

Darhaqiqat, 80-yillarning ikkinchi yarmida xalq ta'limi, oliy ta'lim tizimida ham sustkashlik, foizbozlik illatlari chuqur ildiz otib, milliy jihatlar inobatga olinmas edi. Manbalarga ko'ra, 1987 yilning sentyabrida respublikadagi jami maktablarning 5596 tasi (72,1 foizi) ikki smenada; 23 tasi hatto uch smenada ishlardi. 1178,7 ming o'quvchi ikkinchi smenada o'qir edi. 50 foiz maktab ta'lim-tarbiya muassasalariga mos bo'lmagan binolarda joylashgan edi. Ularda 1204 ming o'quvchi o'rni bor edi. Faqat 2812 (40 foiz) ta maktabda moslangan sport zallari, 22 tasida suzish basseyni, 1934 (25foiz) tasida sport turi mavjud edi. Qoraqalpog'iston Respublikasida 23,2 foiz, Navoiy viloyatida 25 foiz, Jizzax viloyatida 27 foiz, Qashqadaryo viloyatida 26,3 foiz, Samarqand viloyatida 21 foiz, Surxondaryo viloyatida 28 foiz maktab moslangan sport zallariga ega edi xolos. Qishloqlardagi 6273 maktabdan atigi 977 tasi (15,5 foiz) o'z tajriba xo'jaligiga ega edi¹.

80-yillarning oxirida respublikadagi maktablarning 700 ga yaqini tezlik bilan ta'mirlanishga muhtoj holatda edi. Xalq ta'limini mablag' bilan ta'minlashning «qoldiq» tamoyili hali ham davom etayotgan edi. Respublikamizda tug'ilish ko'p bo'lgan holda, maktablar, ularning o'quv-moddiy bazasi yetishmas edi.

¹ Ergashev Q. O'zbekistonda xalq ta'limi rivoji tarixi. - T.: "O'qituvchi", 1998. - 41-bet.

Maktablarning o'qituvchilar bilan ta'minlanishi ham yetarli darajada emas edi. Ayniqsa ona tili, rus tili, matematika, fizika va boshqa bir qator fanlar bo'yicha o'qituvchilar yetishmas edi.

Maktablardagi ta'lim-tarbiyaning hayot bilan, ta'limning foydali mehnat bilan mustahkam bog'lanmagani, «pedagogik kadrlar nazariy tayyorgarligining pastligi, ta'lim-tarbiya vazifalari va asosiy tamoyillarini aniqlashda aniq o'lchovlarning ishlab chiqilmagani, berilayotgan va olinayotgan bilimlar darajasining talablarga javob bera olmasligi o'quvchilarning bilimsizligiga, foizbozlikka olib keldi.

Masalan, Chilonzor rayon maktablari o'quvchilarining bilimi tekshirilganda, 173-maktabning 42,7 foiz o'quvchisi, 106-maktabning 42 foiz o'quvchisi fizika fanidan «qoniqarsiz» baho oldi. Maktablar bergan hisobotda esa o'zlashtirish 99 foiz deb ko'rsatilgan. Alohida fanlar bo'yicha olingan yozma ishlar natijasiga ko'ra bu maktablarda 10 dan 65 foizgacha o'zlashtirmaganlar borligi aniqlandi. 1984 yilda respublikamizdagi oliy o'quv yurtlariga hujjat topshirgan 74 ming abituriyentdan 36 ming nafar yigit-qizgina imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tdi. Maktablarni medallar bilan tamomlagan yoshlarning 32 foizigina o'ziga berilgan yuksak bahoni oqlay oldi¹.

Ayniqsa, ijtimoiy fanlarni o'qitishda yakka mafkura hukmronligi, dinga qarshi tarbiyaning kuchliligi, olinayotgan bilimlar bilan hayotda bo'layotgan voqealarning mos emasligi o'quvchilarda ishonchsizlikni vujudga keltirdi. Ta'lim sohasida ekstensiv rivojlanish asosida ish olib borildi. Iqtisodiyotdagidek maorifda ham «umumiylikka» e'tibor berildi. O'quvchilarning bilim olish darajasi ikkinchi o'ringa tushib qoldi. Asosiy e'tibor maktabni tugatuvchilarni hayotga tayyorlashga qaratildi. Xalq ta'limida ham buyruqbozlik, ko'rsatmabozlik avj oldi. Ta'lim-tarbiya, kadrlar tayyorlash tizimidagi bu kamchiliklarni o'z vaqtida ko'ra olgan davlatimiz rahbari dastlabki kunlardan bu tizim rivojiga e'tibor qaratdi.

Yurtboshimiz 1989 yilning 25 oktyabrida O'zbekiston SSR Oliy Sovetining XI sessiyasida so'zlagan nutqida kadrlar tayyorlash ishiga muhim e'tibor qaratib, quyidagi fikrlarni bildirgan edilar: “Agar, iqtisodiyotimiz baquvvat bo'lsa, yaxshi

¹ Islom Karimov. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. T.: “O'zbekiston”, 2011 yil, 47-bet.

rivoj topsa, bundan madaniyatimiz ham madad oladi, rivoj topadi. Agar ertangi kunimizni o'ylab ish qilmoqchi bo'lsak, kelajakda ishimizni davom ettiradigan bugungi yoshlarimizga sharoit yaratib, ularning hayoti haqida qayg'uradigan bo'lsak, avvalo, mahalliy yoshlarni tarbiyalash ishiga munosabatimizni mutlaqo o'zgartirishimiz kerak. Mumkin qadar ko'proq iqtidorli yoshlarimizni Ittifoqning eng ilg'or korxonalariga, shu jumladan, hatto, xorijiy mamlakatlarga, kerak bo'lsa, yangi texnologiya, yangicha ish tashkil qilishni o'rganish uchun YAponiya, Amerikaga hamda boshqa joylarga yuborib, ularning o'qishiga, tajriba orttirishiga imkoniyat yaratish lozim. Iqtisodiyotimizni, hayotimizni o'zgartirish ana shularga bog'liq bo'ladi. Agar shuni qilmasak, bu yurishda katta yo'lga chiqishimiz qiyin bo'ladi.

Aytish kerakki, kadrlarni puxta qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron-bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi"¹.

SHu bilan birga, O'zkompartiyaning XXII s'ezdida (1990 yil 5 iyun) davlatimiz rahbari ta'lim-tarbiyaga e'tibor qaratib, bu boradagi quyidagi vazifalarni ko'rsatib bergan edi: "Xalq ta'limi, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasi tubdan yangi yondashuvlar talab qiladi. Bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalari bilan ta'minlashda keskin burilishga erishish zarur. Uylardagi bolalar bog'chalari shoxobchalarini, konsultatsiya punktlarini, qishlokdagi bolalar bog'chasi-maktab komplekslari shoxobchalarini faollik bilan kengaytirish lozim.

Iste'dodli bolalar uchun maktab-internatlar tashkil qilish davom ettiriladi. Bolalar bog'chasi, maktab bilan bir qatorda bolalar poliklinikalarini, cho'milish havzasi bo'lgan sport maydonchalari, bolalar bilan maktabdan tashqari ish olib boruvchi muassasalarni o'z ichiga oladigan bolalar muassasalari territorial komplekslarini barpo etish xususida chuqur o'ylab, bu ishni boshlab yuborish o'rinli bo'lur edi"².

¹ O'sha manba, 70-71-betlar.

² Islom Karimov. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". T.: "O'zbekiston", 2011 yil, 206-207-betlar.

Yurtboshimiz e'tibor qaratib, orzu qilgan bu ishlar mustaqillik davrida qay holatga kelganini, amalga oshirilgan ishlar qanday samara berayotgaganini talabalarga aniq misollar bilan tushuntirib berish muhim ahamiyatga egadir.

1.3. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar istiqboli.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan oq barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasini rivojlantirish, yosh avlodni har ma'nan ham jismonan yetuk kadrlar etib voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. SHu maqsadda 1992 yilda ta'lim to'g'risida qonun qabul qilindi va 1997 yil 29 avgustda "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning yangi tahriri va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishi ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarni yaratdi.

O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi tub islohatlar o'ziga xos demokratik umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tashkil topgan. Bu xaqda to'xtalib, Prezidentimiz I.Karimov: "Ta'lim-tarbiya islohoti haqida gapirar ekanmiz, uning mazmunini lo'nda qilib ifoda etish mumkin: bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limini ko'rgan shaxslar kerak... Ishonchim komil: agar bu islohotni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada biz hayotimizdagi ijobiy ma'nodagi "portlash efekti"ga ya'ni uning samarasiga erishamiz", deb ta'kidlagan edi. Komil ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston bugun yoshlar ta'limini rivojlantirish sohasida bu yo'ldan dadil bormoqda.

O'zbekiston mustaqilligining yigirma ikki yilligiga respublikamiz xalq ta'limi ulug' muvaffaqiyatlar bilan kelmoqda. Zero, istiqlool shunday tarixiy g'alabaki, u ijtimoiy, jamiyatning ham, unda yashayotgan kishilarning ham siyosiy taqdirini, mavqeini o'zgartirib yubordi. O'zbekiston mustaqilligi – bu nafaqat siyosat, balki ma'naviyat hamdir. O'zbekiston mustaqilligi millatning tamoman yangi sifatlarga ega bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy istiqbolini belgilab berdi. Bunda respublika xalq ta'limida amalga oshirilgan islohotlar va bu borada erishilgan muvaffaqiyatlar muhim tarixiy ahamiyat kasb etadi.

Muhtaram prezidentimiz I.Karimov alohida ta'kidlaganidek, **"o'z – o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamli vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega"**. Demak, konstitutsiya – kadrlar tayyorlash milliy dasturining huquqiy asosi.

Har bir davlatning kuch – qudrati, taraqqiyoti ijtimoiy – iqtisodiy faktorlari bilan bir qatorda aholisining, xususan, ziyoli qatlamining intellektual imkoniyatlariga, tafakkur darajasiga bog'liq. SHuning uchun ham davlat mustaqilligining dastlabki yilidanoq yangicha, istiqloliyy taffakurga ega bo'lgan milliy kadrlar tayyorlash masalasi kun tartibiga qo'yildi. Milliy, ijtimoiy – siyosiy

faol, yuksak aql – zakovatli ziyolilar masalasi har bir jamiyatda, har bir zamonda dolzarb vazifa bo'lib kelgan. Lekin O'zbekiston mustaqilligi uni tamoman yangicha sifat, mazmun darajasida talab qildi. Zero, sovetcha ma'muriy – buyruqbozlik andozasidagi kadrlar nomenklaturasi O'zbekiston mustaqilligining ham, milliy davlatchiligimizning ham ijtimoiy tabiatiga, maqsad mohiyatiga zid edi. Totalitarizmga, ulug' davlatchilikka asoslangan tuzum hech qachon kadrlar siyosatini milliy manfaatlari yo'nalishida qo'ymasligi endi har bir ziyoliga ma'lum.¹ Ana shuning uchun ham O'zbekiston mustaqilligi milliy kadr masalasini davlat siyosati darajasida hal qilish vazifasini qo'ydi. SHu munosabat bilan prezident I.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida (1997) **“jamiyatni ma'naviy jihatdan yangilamay turib respublika fuqarolarining yangi avlodini voyaga yetkazmay turib, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalamay turib, farovon, qudratli demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyat sari ildamlab bo'lmaydi”**², - deb ta'kidlagan edilar.

Milliy kadrlar tayyorlash borasida 1997 yilga kelib tub o'zgarishlar qilindi. Albatta, o'tgan yillarda bu borada muhim tadbirlar, islohotlar amalga oshirilgan bo'lsada, ular vaqtinchalik o'tish davriga mo'ljallangan edi. Davlatning “Ta'lim to'g'risida”, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida” qonunlari kadrlar tayyorlashning huquqiy asosi bo'lishi bilan birga, uning milliy modelini, amalga oshirish mexanizmini ham yaratdi. Mazkur xujjatlarni tayyorlash va hayotga tadbir etishda prezident I.Karimov tashkilotchi va ilxomchi bo'ldi. Mustaqillikning o'tgan yillarida u kishining asar va maqolalarida yoshlar, ularning ta'limi, tarbiyasi muammosiga ko'plab marta murojaat qilinganligini ko'ramiz. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” o'sha xalq ta'limi to'g'risidagi g'oyalar, demokratik islohotlarning yangi, yaxlit ifodasi edi.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida inson, uning ma'naviy dunyosi, ijtimoiy – siyosiy faolligi masalasi dolzarblashdi. CHunki bu davrda davlatni, jamiyatni rivojlantirishning, mustahkamlashning birinchi faktori intellektual boylik hisoblanadi. Istiqlol boshqa jamiyatlardan o'zining shu sifati bilan farq qiladi. Istiqlol beparvolik, loqaydlik, xudbinlik kabi holatlarga toqat qila olmaydi. Prezident I.Karimov istiqlolning birinchi yilidayoq O'zbekiston kelajagi buyuk davlat deganda eng avval millatning ma'naviy omilini nazarda tutgan edi. Xuddi shu g'oyani “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham ko'ramiz. Uning markazida shaxs, komil inson muammosi turadi. Zero, komil inson jamiyatni harakatlantiruvchi yakkayu - yagona kuchdir. SHunday ekan shu kuchning o'zini yaxshilash, uni hozirgi zamon ilg'or fan, texnikasi yutuqlari bilan qurollantirish, ijtimoiy – siyosiy jihatdan chiniqtirish “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning uzoq muddatga mo'ljallangan asosiy maqsadidir.

Har bir davlatning kuch – qudrati, taraqqiyoti ijtimoiy – iqtisodiy... faktorlari bilan bir qatorda aholisining, xususan, ziyoli qatlamining intellektual imkoniyatlariga, tafakkur qobiliyati va ma'naviylik darajasiga bog'liq. SHuning uchun ham, davlat mustaqilligining dastlabki yilidanoq yangicha, istiqloliyl

¹Қаранг: Каримов И.А. Империя даврида бизни иккинчи даражали одамлар, деб ҳисоблашар эди. “Халқ сўзи”, 2005, 19 январ; Мутлақо махфий. “Ўзбекистонда ижтимоий фанлар”, 1992, №7, 25 – бет, ва бошқалар.

² Қаранг: Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6 – жилд, Т., “Ўзбекистон”, 1998, ... бет

tafakkurga ega bo'lgan milliy kadrlar tayyorlash masalasi kun tartibiga qo'yildi. Milliy, ijtimoiy – siyosiy faol, yuksak aql – zakovatli ziyolilar masalasi har bir jamiyatda, har bir zamonda dolzarb masala bo'lib kelgan. Lekin O'zbekiston mustaqilligi uni tamoman yangicha sifat, mazmun darajasida talab qildi. Ana shuning uchun O'zbekiston mustaqilligi mamlakatda milliy kadrlar masalasi davlat siyosati darajasida hal qilish vazifasini qo'ydi.

Biz professor – o'qituvchilar shuni hech qachon unutmasligimiz kerakki, oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zaruriyati tug'ilmasin, gap oxir – oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi, taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz mamlakatimizning kelajagi o'rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq.

O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni jahon miqyosida targ'ib etish, bu borada jahon amaliyotidan foydalanish va xalqaro hamjamiyat bilan bu borada hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida 2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkentda "YUksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti" mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu konferensiyada e'tirof etilganidek, mamlakatimizda 12 yillik majburiy bepul ta'lim olish hamda muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 10-12 foizini tashkil etayotgani va bu tizimning Davlat byudjeti xarajatlaridagi ulushi 35 foizdan ortig'ni tashkil etishi o'z-o'zidan mazkur sohaga qaratilayotgan ulkan e'tiborning yaqqol tasdig'i hisoblanadi.

SHu ma'noda Navoiy viloyatida oliy ta'limning shakllanishi va rivojlanishi tarixi masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy viloyatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 27 yanvardagi PF-356-sonli farmoniga binoan Navoiy davlat konchilik instituti va Navoiy davlat pedagogika instituti tashkil etildi.

Hozirgi kunda ushbu oliy o'quv yurtlari nafaqat viloyat balki, respublika uchun zarur malkali mutaxassislar tayyorlab, mamlakat kadrlarini safini kengaytirib bormoqda. SHuningdek, ushbu oliygohlar xalqaro miqyosda ham aloqlarni kengatirib bormoqdalar.

Navoiy davlat pedagogika instituti. Ushbu oliygohda 383 nafar professor-o'qituvchilar, 12 nafar fan doktorlari, professorlar, 78 nafar fan nomzodlari, dotsentlar, ko'plab ilmiy tadqiqotchilar va ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh stajyor-tadqiqotchi izlanuvchilar faoliyat olib bormoqdalar. Institutda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish borasida so'nggi yillarda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, har yili ko'plab darslik va risolalar, monografiyalar chop etilmoqda, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalar yaratilmoqda.

Ilmiy-tadqiqot natijalari ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarida belgilangan fanlarni o'qitishda, umumta'lim maktablari, o'rta maxsus va kasb-hunar, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida tadbiiq qilinmoqda. SHuningdek, tadqiqot natijalaridan uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashda, Navoiy viloyati texnogen jarayonlarini

tahlil qilish hamda ekologik muammolarni hal qilishda, viloyat tarixi, adabiy muhitini o'rganish va boshqa sohalarida unumli foydalanilmoqda.

So'nggi yillarda chet eldagi ilmiy markazlar bilan hamkorlik yaxshilandi. Rossiya Federatsiyasi FA Sibir bo'limi (Novosibirsk hisoblash texnologiyalari instituti, Hisoblash markazi, Krasnoyarsk shahridagi Fizika instituti), MDU, MDPU, Novosibirsk DU, Qozog'iston Respublikasining Olma-ota industrial-pedagogika Akademiyasi, CHimkent DU, Bolgariya Respublikasining Varna iqtisodiyot universiteti va Koreya Respublikasi Seul Milliy universitetlari bilan o'zaro manfaatli ilmiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Navoiy davlat pedagogika instituti va Koreya Respublikasi Seul Milliy universiteti o'rtasida imzolangan hamkorlik Memorandumiga asosan hamda Seul Milliy universitetining taklifiga binoan NavDPIning 10 nafar professor-o'qituvchilari 2011 yil 21-25 fevral kunlari Koreya Respublikasida xizmat safarida bo'lishdi.

Institutimizda talabalarning Davlat ta'lim standartlariga munosib tarzda bilim olishlari uchun barcha imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan. Jumladan, barcha o'quv xonalari zarur jihozlar, kompyuter texnikasi vositalari, o'quv laboratoriyalari, zarur adabiyotlar, ilmiy manbalar bilan to'liq jihozlangan. Institutda ko'plab adabiyotlar jamlangan axborot-resurs markazi, "Ziyonet" ta'lim markazi, sport zallari muntazam ravishda professor-o'qituvchilar va talabalar uchun ishlab turibdi. Bundan tashqari oliygohimizda turli fan va sport to'garaklari, klublar, badiiy havaskorlik jamoalari ham bevosita talabalar ishtirokida faoliyat yuritmoqda. Har yili talabalar turli fan olimpiadalari, turli tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqdalar. SHuningdek, institutda Davlat mukofoti sohiblari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi hamda nomdor Davlat stipendiyalari, xalqaro, respublika grant sovrindorlari faoliyat olib bormoqdalar.

Navoiy davlat konchilik instituti. Ma'lumki, Navoiy davlat konchilik instituti O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1995 yil 7 iyuldagi «Navoiy davlat konchilik institutini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni hamda 1995 yil 26 iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Navoiy davlat konchilik instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori asosida Navoiy shahrida tashkil etildi.

Bugungi kunda Navoiy davlat konchilik instituti tarkibida 5 ta fakultet faoliyat ko'rsatmoqda. Ular, Konchilik, Energo-mexanika, Kimyo-metallurgiya, Olmaliq kon-metallurgiya va Zarafshon umumtexnika fakultetlaridir. Navoiy shahridagi 3 ta fakultet ixtiyorida 3 ta o'quv binosi, 1 ta talabalar turar joyi, madaniy hordiq chiqarish maskani, sport-sog'lomlashtirish maskani, til o'rganish markazi va xo'jalik binolari, kompyuter sinfilari, 2 ta Axborot-resurs markazi va o'quv zallari talabalarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

SHuningdek, yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash ishlariga ham yetarlicha e'tibor qaratilgan. Oliygohta 1996-2010 yillar davomida 6 ta doktorlik va 30 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. SHu bilan birgalikda, istiqbolli rejaga ko'ra kelgusida 53 nafar fan doktori va 125 nafar fan nomzodi tayyorlanishi ko'zda tutilgan holda o'tgan 2009 yilda 3 nafar fan doktori va 3 nafar

fan nomzodi ilmiy darajalari muvoffaqiyatli himoya qilindi. 2010 yilda esa 5 ta fan doktori va 20 dan ortiq professor-o'qituvchilar fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun himoyaga tayyorgarlik ko'rmoqdalar.

2010 yil institut professor-o'qituvchilari 1-3 mart kunlari o'tkazilgan III-Respublika "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar" yarmarkasiga faol ishtirok etib 4 ta loyiha bo'yicha NKMK rahbariyati bilan 57 mln so'mga kelishuv bayonnomasi imzolandi. Bu ta'lim, fan va ishlab integratsiyasini rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Navoiy viloyatida oliy ta'limning rivojlanishi tarixi va bugungi rivojlanish istiqbollari tahlil qilgan holda quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

birinchidan, viloyatning iqtisodiy-industrial imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu viloyatda yangi oliygoh ochish;

ikkinchidan, viloyatda kadrlarga bo'lgan talabni qondirish maqsadida yangi ta'lim yo'nalishlarini ochish. Masalan, fransuz tili, nemis tili, kasbiy ta'lim v.h.

uchinchidan, viloyatdagi ushbu ikki oliy ta'lim muassasalarining fan va texnologiyalar bilan aloqasini kengaytirish maqsadda viloyatdagi korxona va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzib zarur maqsadli kadrlar tayyorlash;

to'rtinchidan, viloyat oliy ta'lim muassasalarining xalqaro aloqalarini yanada kengaytirish v.h.

O'zbekiston mustaqilligi xalqimizning ko'p yillik shonli va nurli sahifalarida tub burilish bo'lib, insonparvarlik va demokratiya bilan yo'g'rilgan yangi bosqichni boshlab berdi. Istiqlool tom ma'noda xalqimizning azaliy orzu umidlari va tarixiy mentalitetidan kelib chiqqan holda, xalq, millat falsafasiga aylanib ulgurdi. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz I. A. Karimov yuksak faxr va iftixor bilan "Bugun biz erkinlik havosidan nafas olib yashayotgan, o'z qadr-qimmatini, insoniy sha'nini, ne-ne ulug' zotlarning vorisi ekanini, o'zligini anglagan, milliy g'urur va iftixorini tiklagan jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallab, XXI asrga dadil qadam qo'yayotgan buyuk xalqimiz"¹- deb ta'kidlagan edilar. Darhaqiqat, bu inkor etib bo'lmas xaqiqat. Xalqimiz yangi mingyillikka tub islohotlar orqali o'ziga xos yangilanishlar va modernistik taraqqiyot bilan dadil qadam tashlamoqda. Bu taraqqiyotning zahirida, ildizida, mafkuraviy-ma'naviy negizlarida umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish g'oyasi, maqsadi yotadi. Bunda albatta ta'lim-tarbiya sohasining ahamiyati katta.

¹ Каримов И. "Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз" Тошкент, "Ўзбекистон" 2000 йил, 8 жилд, 69-бет.

II.BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISHNING KONSEPTUAL, NAZARIY VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ta'lim sohasini isloh qilish to'g'risidagi g'oyalari.

Prezidentimiz tomonidan ta'kidlangan umumbashariy qadriyatlarning zaminida albatta, birinchi o'rinda ta'lim-tarbiya yotadi. Insonda qachonki insonparvarlik g'oyalari ustun bo'lsa, siyosiy ongi yetuk bo'lsa, atrof-muhitga munosabati sog'lom bo'lsa, bir so'z bilan aytganda umumbashariy qadriyatlar ustun bo'lsagina bunday insonlar mavjud bo'lgan jamiyatni biz fuqarolik jamiyati deb atay olamiz. SHunday ekan, istiqbolimizni belgilaydigan ta'lim sohasini isloh qilish mamlakatimizdagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida XX asr oxirlarida maydonga chiqdi. Aynan ana shu ta'lim sohasi kelajagimizni yaratadi.

Prezidentimizning yuksak darajadagi insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan qimmatli fikrlarini mazkur paragrafida ilmiy jihatdan o'rganib, tahlil qilishga harakat qilamiz.

O'zining mustaqil rivojlanish yo'liga qadam qo'ygan respublikamizning ta'lim sohasining isloh qilinishida Respublikamiz Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning serqirra faoliyati bilan birga, uning nutqlari nashriy asarlarining ham ahamiyati beqiyosdir.

Barchamizga ma'lumki, respublikamiz milliy mustaqilligini qaror topshirish nihoyatda murakkab tarixiy va ijtimoiy siyosiy sharoiga to'g'ri keldi. Bu jarayonda esa mulkchilikning yagona davlat monopoliyasiga asoslangan shaklidan ko'p ukkladli shakliga o'tish, shuningdek, huquqiy demokratik davlat qurish va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishni, o'z fikr va dunyoqarashiga ega bo'lgan kadrlarni tarbiyalash zamon talabi edi. SHunday ekan, ushbu jarayonda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, dunyoning rivojlangan davlatlari bilan ushbu sohada

hamkorlikni kuchaytirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib turardi. SHuning uchun ham ta'lim sohasiga davlatimiz alohida g'amxo'rlik qildi va qilmoqda.

Zero, Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganlaridek, - "yosh respublikamiz mustaqilligiga rahna solishi mumkin bo'lgan ichki va tashqi salbiy omillar fuqarolarning hushyor bo'lishlari, vatanparvarlik ruhi bilan nafas olishlari, harakat, faoliyat yo'nalish belgilari hayot – mamot masalni bo'lib turibdi. Bularning barchasi nafaqat iqtisodiy, siyosiy sohada, balki ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda, jumladan uning tarkibiy qismi bo'lgan ta'lim – tarbiya tizimida jiddiy islohatlar o'tkazishni va bunda inson shaxsi, o'z ichki salohiyotini eng ko'p darajada namoyon eta oladigan muhitni yaratishni talab etmoqda" ¹ deydi.

Darhaqiqat, eng oliy qadriyat sifatida tan olingan inson, uning hayoti, havfsizligining ta'minlanishini masalalarining barcha – barchasi ma'rifatga borib taqaladi. Hayotda esa ma'rifatga hamisha jaholat to'siq bo'ladi. "Jaholat" so'zining o'zi ilm ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat deya talqin etiladi. Dunyoni jaholat egallasa nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma'rifat, ma'naviyat, hurfikrlilik, inson ozodligi barcha- barchasi barham topadi.

Ma'rifat esa insonlarning ong – bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim tarbiyadir. Demak, jaholat bilan ma'rifat bir – biriga tamoman qarama - qarshi tushunchalardir. Hayotda ma'rifat jaholatning illatidan o'z maqsadi yo'lida foyladanmaydi. Biroq jaholat o'zining manfur niyatini amalga oshirishda ma'rifatning hislatlarini ishga soladi, o'zining g'arazli maqsadiga erishish uchun ma'rifat niqobiga kirib ish yuritadi.

Fikrlarimizni misollar orqali tushuntirishga harakat qilamiz. XXI asr vabosi "deya atalishi teroririzmning tub – tubi ham jaholatga borib taqaladi ya'ni, qanchadan - qancha yoshlarning din niqobiga o'ralgan soxta aqidalarga uchishi" barchasi ma'naviyat, ma'rifatning sayozligidan kelib chiqqan, buning oqibati esa qanchadan - qancha insonlarning hayotiga zomin bo'lishi muqarrardir.

¹ Каримов И.А. Баркомол авлод орзуси. - Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000 йил. 10 бет.

Prezidentimizning yuqori fikrlarida esa, bir soʻz bilan aytganda tinchlik, xavfsizlik kabi gʻoyalar ilgari surilgan.

Jamiyatimizni tubdan yangilash maqsadini koʻzlab ishlab chiqilgan bashta tamoyil hayotga tadbiq etilayotgan hozirgi paytda maʼnaviy – maʼrifiy ishlarni amalga oshirish, jamiyatda milliy gʻoyani shakllantirish, buning natijasida esa, erkin shaxsni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan boʻlib hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Abdugʻaniyevich Karimovning "Tafakkur" jurnali bosh muharriri savollariga javoblari va bir guruh tarixchi olimlar bilan boʻlgan suhbatida, Vazirlar Mahkamasining "Maʼnaviy- maʼrifiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora tadbirlari toʻgʻrisidagi" qarorida, shuningdek, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashabbus guruhi bilan uchrashuvida soʻzlagan nutqida yoshlar ongida milliy gʻoyani shakllantirish, ularning maʼnaviyatini yuksaltirish, xalqimizning haqiqiy tarixini tiklash kabi masalalar ilgari surilgan.

Zero, taʼlim – tarbiya tizimini sogʻlom insonparvarlik yoʻnalishida qayta tashkil etish, uni zamon talabalari darajasiga koʻtarish, barkamol, maʼnaviy dunyosi boy, ahloqiy pok insonlarni tarbiyalash kechiktirib boʻlmaydigan davlat ahamiyatidagi vazifa boʻlib hisoblanadi.

Fikrimizning yorqin dalili sifatida esa Prezidentimizning taʼlim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishning davlatimiz, jamiyatimiz uchun zarur ekanligini isbotlab bergan Birinchi chaqiriq Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida soʻzlagan nutqini keltirishimiz mumkin.

Unda farzand tarbiyasida oilaning, oilaga xos anʼanalar, qadriyatlar va urf-odatlarining bola tarbiyasidagi roli aniq koʻrsatib berilgan: -- "eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talabalarini anglaydi, his etadi"— deydi Prezidentimiz oʻz nutqida. Bunda farzand tarbiyasida oilaning, ota – onaning, atrof-muhitning roli katta ekanligi tasdiqlangan.

Darhaqiqat, oila insonga insoniyligini anglatadigan, uning kelajagiga mustaqil zamin yaratadigan muqaddas maskan, taʼlim tarbiya oʻchogʻidir.

Prezidentimizning "Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir" asarida esa bu haqda shunday deyilgan: "YUrtimizdagi har bir inson uchun Vatan tushunchasi, avvalo, oiladan boshlanadi. SHu bois oila mafkura tushunchalari chambarchas bog'liqdir. Oilaning jamiyatdagi o'rni, tarbiyaviy – ahloqiy ahamiyati, qadr-qimmatini anglab yetishdan, oilaga millat manfaati nuqtai nazaridan yondoshmasdan turib, xalqchil mafkura yarata olmaymiz."

Inson taqdiri oilaga, oila ta'lim-tarbiyasiga bevosita bog'liq bo'lsa, o'z navbatida oiladagi o'zaro munosabatlarga atrof-muhitning ta'siri o'ta muhim. Zero, maqsadimiz "kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari" ekan bola tarbiyasiga jamiyatning ta'sirini oshirish lozim.

Jamiyatning birinchi bo'g'ining tashkil etgan oilalarning sharoitlariga keladigan bo'lak, ular bir – birisidan tubdan farq qiladi. SHuningdek, ulardagi bolalarning hulqu atvoriga ta'sir qilish darajasi ham har xildir. YA'ni bu ta'sir qilish ijobiy yoki salbiy ma'noda bo'lishi mumkin. Bularning barchasi esa jamiyatda xushyorlikni talab qiladi. "Xushyorlik" deganda birinchidan atrofdagilar bilan muloqatda; ikkinchidan, ularning nimalar bilan bandligi; uchinchidan, ularning hatti-harakatlari kelajak uchun ijobiyligi yoki salbiy oqibat olib keladimi?

Prezidentimiz ota-onaning farzand oldidagi burchlaridan biri farzandini savodli, kasb -hunar egasi qilishdan iborat ekanligini quyidagicha ta'kidlaydigan: - "Ota-onaning farzand oldidagi burchlari, o'zlarining oxiratini obod etuvchi qarzlar bor. Dinu diyonatli xonadon oqsoqallaridan so'rasangiz, ularni lo'nda qilib sanab beradi: yaxshi nom qo'yish, yaxshi maullim qo'lga topshirish, savodini chiqarish, ilimli, kasb - hunarli qilish, boshini ikki, uyli joyli qilish"¹ deydi.

Albatta yuqoridagilarning barchasi ularning o'z o'rnida bo'lishi insonni barkamollik sari yetaklaydi.

«Turonzaminu SHarq olamining, butun insoniyatning ilm-fani, madaniyati va ma'rifati taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk mutafakkir, ilk uyg'onish davrining qomusiy allomasi bo'lib hisoblangan Abu Nasr Farobiyning uqtirishga,

¹ И.А. Каримов. Баркомол авлод орзуси. Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2000 йил. 10 бет.

iloji bo'lsa oldin tarbiya, so'ngra ta'lim berilishi lozim. Uyda, oilasida yaxshi tarbiya ko'rgan bola ixlos va ishonch bilan ta'lim olishga, ilm-fanni o'rganishga intiladi.

Agar yoshlarda ma'naviy kamolot zarur bo'lsa, ularda ta'lim olishga, hayotda o'ziga munosib o'rin egallashga ishtiyoq sust bo'ladi. Ana shularni hisobga olib, Farobiy avval yoshlarni tarbiyalab, mehnat qilishga o'rgatib, kasb - hunarni bildirib, keyin ta'lim berish lozim», deb ta'kidlaydi.¹

U bu haqda yana shunday degan: -- "Har kim ilm hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon shilardan saqlasin, xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin ilmi va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va aqli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, real, moddiy narsalar to'g'risida bilimni egallasin"

YUqoridagi fikrlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, inson hamisha ilm sari intilib yashashi kerak, shuningdek olgan ilmlarini hayotda kasbiy faoliyatda, yaratuvchilikda foydalanishi lozimdir. Zero, hayot harakatdan iboratdir. Inson hayotini falokatga olib keluvchi narsa bu ham bo'lsa hayotda birdan-bir inson uchun foydali faoliyat, kasbu kor bilan mashg'ul bo'lmaslikdir. Ota-onaning farzand oldidagi burchlarini mas'uliyat bilan ado etishi nafaqat farzandining kelajagi uchun, balki o'zining va jamiyatning kelajagi uchun ham ijobiy rol o'ynaydi.

Amaldagi milliy qonunchiligimiz qoidalariga asosan, ya'ni konstitutsiyamizda va oila kodeksida ota-onaning farzand oldidagi burchlari va shu bilan birga farzandning ota-ona oldidagi burchlari, ularning huquqiy tomonlari batafsil belgilab qo'yilganligini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Mamlakatimiz o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan barcha javhalarda bo'lgani singari ta'lim sohasida ham rivojlanish uchun qulay shart-sharoit va muhit yaratildi. Bu esa o'z navbatida jamiyatimiz buyuk kelajakka

¹ Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шахри. Т., 1998. 130-134 бетлар

intilayotgan davlatimiz zimmasiga juda katta vazifalar va mas'uliyat yukladi. Prezidentimiz bu haqda shunday deydi: - "mana shuning uchun ham bugungi kunda biz bu masalaga jiddiy e'tibor bermoqdamiz. SHuning uchun ham bu maqsadga qaratilgan loyihalarimiz jamoatchiligimiz diqqat e'tibori markaziga o'tmoqda, tarbiya sohasi islohoti bugungi eng dolzarb, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi muammolarga aylanmoqda."¹

SHuningdek, "jamiyat, xalq va davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti moddiy-ma'naviy kamolot, o'sish-o'zgarish va rivojlanishi bilan chambarchas bog'langan taqdirdagina behat tezlashadi va yuksak samaralar beradi. YUksak ma'naviyat jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa muammolarini hal etishning muhim omilidir."¹

Darhaqiqat, ta'lim tarbiya ertangi taqdirimizni hal qiladi, ya'ni fikrlarimizni quyidagi jumalarda ifodalanishiga harakat qilamiz: dehqon bu yil ekin eksa, bu yil hosilini oladi, tarbiyachining esa, bugun bergan tarbiyasi ertaga millionlab insonlarga foyda keltirishi mumkin, yoki aksincha insoniyatning boshiga falokat keltirishi ham mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hali davlat mustaqilligini qo'lga kiritmasdanoq Prezidentimiz kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratgan edi: -"aytish kerakki kadrlarni puxtaroq qilib tarbiyalamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qullab quvvatlamasdan, o'ylanmanki, birorbir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi" degan edi.

YUqoridagi fikrlar bayon qilingan davrlar sobiq sho'ro zamoni bo'lib, bu tizimda esa millatni yorug'likka olib chiqaruvchi barcha harakat, g'oya va gap gapligicha yanayam aniqrog'i, barkamol avlod hiqidagi orzular orzuligicha qolib ketar edi. Bu g'oyani amalga oshirish imkoniyatining yo'qligi sababli O'zbekiston ham mafkuraviy, ham iqtisodiy jihatdan tobe edi.

¹ Каримов. И.А Баркамол авлод- Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т.-, 2001 9 б.

Ta'lim sohasining isloh qilinishi arafasida Prezidentimiz o'tgan davr mobaynida amalga oshilgan tadbirlarni zamon talab qilayotgan darajada emasligiga alohida to'xtalib o'tgan edi.

Bu birinchidan, eski sho'rolar davridan qolgan ta'lim tarbiya tizimida mafkuraviy qarashlarning va sarqitlarning hali ham mavjudligida;

Ikkinchidan, ta'lim tarbiya va o'quv jarayonini bir biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim tarbiya tizimini tashkil qilish muammolarining o'z yechimi topolmay qolganligida;

Uchinchidan, Respublikamizdagi amaldagi ta'lim tarbiya tizimimiz bugungi zamonaviy, taraqqiy topgan demokratik davlatlar talablariga javob bera olmasligi ko'p joylarda yaqqol ko'rinyotganligida, shuningdek, mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim va bilim berish tizimi hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yaqinroq bog'lanmaganligida ham ko'zga tashlanib turganiligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

SHuningdek, ta'lim sohasining ta'lim tarbiya jarayonining ko'tilgandek natija berishi asosan o'qituvchiga borib taqalishini, ya'ni tarbiyachining saviyasiga, u qanchalik darajada zamonaviy bilim, tajriba va ushbu bilim ko'nikmalarini o'quvchi onggiga qay darajada va qanday metodlarni qo'llash orqali yetkazib bera olishi mumkinligini jiddiy muammo ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Darhaqiqat, ta'lim jarayonida o'qituvchi yetakchilik rolini o'ynaydi.

o'qituvchi- bu ta'lim turlari uchun davlat tomonidan belgilangan O'zbekiston uzluksiz ta'limining davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim tarbiya beruvchidir.

o'qituvchi- (agar ta'lim tarbiyaning san'at deb qaraydigan bo'lsak) "derejyor". Tarbiyalanuvchilar esa bu jarayonda "ijrochilardir."

SHunday ekan, ta'lim tarbiya jarayonida o'qituvchining roli katta bo'lib, "o'qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag'batlantirish, ularni o'z ishi va kasbidan mamnun bo'lishini ta'minlash lozim"dir.

o'qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablari qondirilmas ekan, ularni o'z kasbidan mamnun bo'lishlarini ta'minlash qiyindir, ya'ni ularning mehnati bir so'z bilan aytganda ko'tilgandek natija bermaydi.

SHu o'rinda O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprel qonuni bilan fuqarolarning mehnatdagi samarali xizmati uchun, davlat, ijtimoiy va ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi "O'zbekiston da xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi", "O'zbekiston xizmat ko'rsatgan fan arbobi", "O'zbekiston xizmat ko'rsatgan sport ustoz" kabi faxriy unvonlarning ta'sis etilganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Mazkur faxriy unvonlarni topshirish esa Prezidentimizning vakolatlaridan biridir.

Prezidentimiz islohot arafasida qilgan nutqida maktablarning moddiy bazasi juda nochor ahvolda ekanligini, birinchi navbatda qishloq joylardagi ahvol-vaziyat misolida ochiq tan olishimiz kerakligini ta'kidlagan va bunga juda dolzarb masala sifatida qaradi.

Qishloq bolalarining bugungi ahvoli qanday, ularda ta'lim jarayoni qanday kechmoqda? Albatta, bu masalalarni yurtboshimiz ta'kidlaganidek "birdaniga yechish qiyin, bu misollar bosqichma-bosqich»¹ amalga oshirilishi lozimdir.

Prezidentimiz ta'limni isloh qilishda adabiyotlarning tutgan rolga alohida e'tibor qaratdi. Darsliklar "eski qolipda, mustabit davrida yozilgan"ligini bu esa o'z navbatida bolalarning erkin fikr yurita olish qobiliyatlarining shakllanishiga to'siq bo'lishini isbotlab bergan edi.

Xalqaro hamkorlikda xorijiy tillarning tutgan o'rni alohida bo'lib, xorijiy tillarni o'rganishning ahamiyatini Prezidentimiz alohida ta'kidlab shunday dedi:

"Ammo shunga alohida urg'u berishimiz zarurki, chet tillarni o'rganish min'bad ona tilini esdan chiqarish hisobiga bo'lmasligi lozim". Zero, "o'z fikrini mutlaqo mustaqil ona tilida ravon, go'zal va lunda ifoda eta olmaydigan mutaxassisning rahbar kursisida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin."²

¹ Каримов. И.А Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т., шарқ 1999. 13 б

² Каримов. И.А. Баркамол авлод- Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., Шарқ, 1999 йил 13 бет.

O'ziga hech qanday chiroyli sharh talab qilmaydigan yuqoridagi g'oyalarni o'qib bugungi kunimiz uchun ham ahamiyatliliga amin bo'lamiz.

Mustaqil fikr yuritish demokratiyaning muhim ko'rinishlaridan biridir, bu esa o'ta dolzarb masala bo'lib, bolalikdan ota-ona, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilikdan bu masalaga katta mas'uliyat talab etadi.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov islohoti arafasida bolalarning maktabda mustaqil fikr yurita olishga e'tibor berish lozimligining ahamiyatini isbotlab shunday deydi: -"demokratik jamiyatda bolalar umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi."¹

SHu bilan Prezidentimiz "demokratiya" bilan "erkin fikr yuritish"ning ajralmasligiga diqqatimizni qaratadi.

Zero, jamiyatda erkin fikr yuritish bo'lmasa demak, demokratiya ham bo'lmaydi, yoki aksincha, bular bir-biri bilan bog'liq bo'lgan g'oyalardir.

SHu o'rinda bu xususdagi muammolarga bag'ishlangan tadqiqotlar natijasini misol tariqasida keltiramiz mamlakatimizning qishloq o'quvchilaridan "siz o'zingizning birorbir misolga qarshi yoki aksincha bo'lgan fikringizni o'qituvchilaringizga ayta olasizmi" deb so'rov berganimizda 45% «ha» deb javob berishdi, qolgan 55%i «yo'q» deb javob berishdi. SHahar maktablarida esa bu ko'rsatkich 60% «ha» javobini bergan bo'lsa, 40% "yo'q" deb javob berishdi. Nima uchun deb so'ralganda esa, "baribir o'qituvchi o'zining aytganini maqullaydi" agar qarshi chiqsak bahomiz pasayib ketadi deb javob berishdi. SHu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, o'quvchilarning huquqiy madaniyatligi, ularning dars jarayonidagi hatti-harakatlarini belgilaydi va ularning o'z fikr mulohazalarini erkin ifodalay olishlarini ro'yobga chiqaradi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan o'zbek modeli deb nom olgan islohotlarning asosini tashkil etadigan besh tamoyilning birida islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish g'oyasi ilgari surilgan. Hozirgi kunda mazkur tamoyilning bizning hayotimizga qanchalik mos ekanligi barchamizga ma'lum.

¹ И.А.Каримов Баркамол авлод- Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Тошкент. Шарқ, 1999 йил 16 бет.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan ta'lim tarbiya sohasida belgilangan islohotlarni hayotga tadbiq qilishda ham yuqoridagi bosqichma-bosqichlik g'oyasi tamoyil sifatida belgilanadi.

Bunda "o'tish davri" bo'lgan birinchi bosqich 1997-2001 yillarni o'z ichiga oldi.

O'tish davri deyilganda ko'z oldimizga bir tuzumdan, ikkinchi tuzumga, bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga o'tish va hokazolar keladi. Ammo ta'lim sohasidagi o'tish davri ta'lim sohasi uchun butunlay yangi davrning, yangi sharoitlarning boshlanishini ko'z oldimizga keltiramiz. Bu davrda kadrlar tayyorlash tizimining «salohiyatini saqlab qolish, uning rivojlanishi uchun huquqiy- me'yoriy, ilmiy-metodik moliyaviy-moddiy shart sharoitlar yaratish lozim»¹ligini ilgari surdi.

Ikkinchi bosqich – 2001-2005 yillarni o'z ichiga olib, "bunda Milliy dasturni keng miqyosda to'liq amalga oshirishga erishish" g'oyasi ilgari surilgan.

Albatta, bunda birinchi o'rinda ta'lim faoliyatining samaradorligini oshirish, mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olib, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, dastur g'oyalari va qoidalariga kerakli o'zgartirishlar kiritilishi lozimligi ta'kidlangan.

Uchinchi bosqich – 2005 yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan bo'lib, unda to'plangan tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish asosida o'zgaruvchan ijtimoiy –iqtisodiy shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan. Bunda Prezidentimiz milliy dastur qoidalarini amalga oshirishda "shoshilmaslik", "og'ishmaslik", "izchillik" kabi g'oyalarga e'tiborni qaratgan. Mazkur g'oyalarga amal qilingandagina umumiy madaniyatni yuksaltirishimiz, yoshlarning jamiyatda o'z munosib o'rnini topishiga xizmat qila olishimiz mumkin deydi.

Prezidentimiz ta'lim tizimining asosiy bosqichini tashkil etuvchi uzluksiz ta'lim tizimiga alohida e'tibor berish lozimligini, umumta'lim dasturlarini esa maktabgacha tarbiya, boshlang'ich umumiy ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim

¹ Каримов И.А Баркамол авлод- орзуси. -Т., 2000 Ўз. Миллий энциклопедияси. 22 бет

tarzida tuzish, maqsadga muvofiq bo'ladi deydi. Oliy ta'limni bakalavrluk va magistraturaga bo'linishi zarur deb hisoblaydi va yurtboshimiz ularni quyidagicha belgilab berdi: "bakalavrluk yo'nalishlaridan biri bo'lib, bazaviy oliy ta'lim berish demakdir va o'qish muddatining kamida 4 yil davom etishi, oliy ma'lumot va tayanch mutaxassislik diplomi olish bilan tugaydi; magistratura esa aniq mutaxassislik bo'yicha oliy kasbiy ta'lim bo'lib, bakalavrluk negizida kamida ikki yil davom etadi, undagi tahsil esa magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan nihoyasiga yetkaziladi"¹ deb belgilandi.

SHuningdek, oliy ta'limning yakunlovchi bosqisi sifatida asperantura va doktoranturani belgiladi.

Prezidentimiz kasbiy ta'lim – qayta tayyorlash va malaka oshirish masalasiga ham katta e'tibor berdi. Darhaqiqat, bu o'ta dolzarb masala bo'lib, busiz mamlakat kadrlarining sifati bo'lmaydi.

Prezidentimiz ta'lim tarbiya tizimini isloh qilayotganda bir muhim masalaga katta e'tibor berishimiz lozimligini ta'kidladi, ya'ni olimlarning fikriga ko'ra, normal rivojlangan bolalarni 6 yoshdan maktabga qabul qilish ularning aqliy, ruhiy va jismoniy kamolati, o'quv dasturlarini yaxshi o'zlashtirishda ijobiy samara berishi mumkinligini, shuningdek bolalar 6 yoshdan o'qishga qabul qilishda ularni har biriga alohida yondashish, birinchi navbatda ularning salomatligi va zehni, shuuri qay darajada shakllanganligi e'tiborga olinishi kerakligiga e'tibor qaratgan.

SHu o'rinda mutaxassislar o'tkazgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra Respublikamizda bolalarning 10-30%i yuqori aytilgan sabablarga ko'ra, 6 yoshdan maktabga tayyor emasligi, bu o'rinda ayrim qishloq sharoitida o'sayotgan bolalarning tahminan 50%i mazkur sababga dahldorligi, bularning barchasini hisobga olgan holda bolalarni 6-7 yoshdan maktabga qabul qilish (ularning jismoniy va aqliy yetukligini e'tiborga olgan xolda) maqsadga muvofiq deb¹ belgilanadi.

¹Каримов И.А Баркамол авлод- Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т., «Шарқ», 1999 й, 25 бет

¹ Юқоридаги манба. 26-бет.

² Юқоридаги манба. 28-бет.

Ikkinchi turdagi uch yillik o'quv yurtlari, ya'ni kasb hunar o'quv yurtlari, zamonaviy kasb hunar bera olishi bilan oldingi PTU lardan tubdan farq qilishi kerak, bu haqda Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov shunday deydi: - "har bir hududning o'ziga xos, jug'rofiy, etnik xususiyatlaridan va extiyojlaridan kelib chiqib, bolalarning ota-onalari bag'rida o'qishi kasb hunar egallashi va shu bilan birga, bu bilim yurtlari o'sha hududning madaniy ma'rifiy markaziga aylanishi lozim"

YUqoridagi fikrlarga asoslanib shuni ta'kidlash lozimki Prezidentimiz ilgari surgan "har hududning o'ziga xos, jug'rofiy, etnik xususiyatlaridan kelib chiqishi" o'ta dolzarb muammodir.

Taraqqiy etgan mamlakatlarning ta'lim sohasidagi tajribalarini o'rganar ekanmiz, shunga amin bo'ldikki, ayniqsa Germaniya, YAponiya kabi mamlakatlarda kasb hunar ta'limini yegallovchilar asosan o'zlari yashayotgan hududlardagi kadrlarga bo'lgan extiyojlaridan kelib chiqib ta'lim olishadi. Bu esa albatta ishsizlikning oldini oladi, shuningdek, ayrim tarmoqlardagi (ishlab chiqarishning) kadrlarga bo'lgan extiyojlarini qondiradi.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amalga oshirishning murakkab tomonlaridan biri sifatli o'qituvchi kadrlar masalasi ekanligini ilgari surgan. Darhaqiqat, o'qituvchilar ularning sifati, jahon tajribalariga asoslangan yangi o'quv dasturlarini amalga oshirishga tayyorligi masalasi o'ta dolzarb muammodir. Ushbu muammoni yechish uchun Pedagogika institutlari va universitetlarida 3 yillik bilim yurtlari uchun o'qituvchilarni tayyorlaydigan maxsus fakultetlarni tashkil etish lozim, viloyatlarda (har bir) esa 3 yillik bilim yurtlarida ishlashi mumkin bo'lgan maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yo'lga qo'yuvchi alohida markazlar ochish zarurligini Prezidentimiz ta'kidlagan edi.

Va nihoyat, ta'lim tarbiya sohasini tubdan isloh qilishda, davlat byudjeti miqdori (qo'shimcha sarf harajatlarning xajmi o'tishi davrining o'zida taxminan 65 milliard so'mni tashkil etish)ni belgilaydi.

Prezidentimiz mamlakatimiz fuqorolarining har birining qalbida Millat, Vatan, Xalq istiboqli kabi muqaddas g'oyalarning o'rin olishi lozimligini shunday ifodalaydi: -"Bizning avlodlarimiz hamisha uzoqni ko'zlab yashagan, Millat, Vatan, Xalq istiboqli dagan muqaddas tushunchalar hamma vaqt qalbimizning to'rida joy olib, har birimizning qalbimizda ongimizda, charx urib turishi darkor.

CHinakam xalq bo'lsak, chinakam millat bo'lsak, ulkan, qudratli daryoga aylanaylik, farzandlarimizga o'zgalar havas qiladigan ozod va obod vatan qoldiraylik."¹

Biz mamlakatimiz prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan g'oyalarini ilmiy jihatdan o'rganib chiqib quyidagicha xulosaga keldik: Prezidentimiz Islom Abdu-g'aniyevich Karimov Respublikamiz ta'lim sohasining isloh qilinishi ijodkori va tashabbuskoridir.

SHu o'rinda Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning mamlakatimiz yoshlari to'g'risida jon ko'ydirib, ularning kelajagi haqida qayg'urini quyidagi jumladan bilib olishimiz mumkin: -"men zamonaviy fikrlaydigan, vatanga sadoqat ruhida tarbiya olayotgan, jahon taraqqiyoti va madaniyati bilan hamdard bo'lishga intilayotgan yuz minglab yoshlarimiz bilan bir qatorda hali shu darajaga yetmagan qanchadan-qancha farzandlarimiz ham borligini o'ylasam, oldimizda naqadar katta muammolar turganini yaqqol tasavvur etaman."²

O'zbek halqining jonkuyar farzandi, jamiyatimizning taraqqiyot yo'llarini oldindan ko'ra biluvchi, barcha sohalardagi islohatlarning asoschisi I. A. Karimovning ta'lim sohasini isloh qilishdagi bebaho xissasini o'rganib chiqar ekanmiz, Prezidentimizning jamiyatimizda milliy g'oyani shakllantirish to'g'risidagi quyidagi fikrlarni kiltirib o'tish joiz deb topdik: - "Bu haqda o'ylaganda meni bir savol qiynaydi. Nega endi sho'ro xukumati o'z soxta g'oyalarini omma ongiga singdira olardi-yu, biz esa xalqimizning asl manfaatlarini

¹ И.А.Каримов Баркамол авлод орзуси. – Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2000 йил 30 бет

² И.А.Каримов Баркамол авлод орзуси. – Тошкент., Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2000 йил 72 бет

ifodalaydigan, uning faravon turmushi va baxtli kelajagi uchun xizmat qiladigan xaqqoniy milliy g'oyalarni odamlarimiz ongiga singdira olmaymiz?

Menimcha, buning sababi shundaki biz demokratik jamiyat qurar ekanmiz, mafkuraviy zo'rovonlikni rad etdik. Biz kishilarning siyosiy ongi, dunyoqarashini boshqarish emas, balki boyitish, yuksaltirish insoniylik ruhida umumjaxoniy me'yorlar asosida tarbiyalash yo'lidan bordik"¹

Darxaqiqat, qariyb 70 yil xalqimiz mafkuraviy xukumronlik zanjirida yashadi. Bu davr mafkuraviy xukumronlik barcha sohada xukumronlik qilgani singari ta'lim sohasini ham egallab olgan edi.

Prizidentimiz I.A. Karimovning ta'lim sohasini isloh qilishga qaratilgan nutqlari, ilmiy asarlarini o'rganib, nazariy jihatdan taxlil qilish asosida quyidagilarni bugungi kunimiz uchun o'ta zarur deb ajratdik:

Birinchi, Qonun ustunligi bizning islohatlar modelimizdagi yetakchi tamoyildir. U huquqiy davlatning asosiy mezonlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi, Ta'lim-tarbiya soxasida amalga oshirilayotgan isloxlarni xayotga tadbiq etishda bosqichma- bosqich o'tkazish prinsiplarining qo'yilganligi.

Uchinchi, ta'lim sohasida o'quv jarayonini insonparvarlashtirish.

To'rtinchi, tarbiyalanuvchilarda erkin fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish.

Beshinchi, ta'lim turlarini tanlashda erkinlik.

Oltinchi, ta'limni isloh qilish davlatimizning ustivor vazifasidir.

Ettinchi, ta'lim sohasini isloh qilishda halqaro hamkorlikka e'tibor qaratish kabi dolzarb masalalar.

Prizidentimiz I.A. Karimov o'zining ajoyib taxlil qobiliyati, kelajakni oldindan ko'ra olishi, nozik xis etish iste'dodiga ega ekanligini quyidagi fikrlar orqali yaqqol tasavvur qila olamiz: ya'ni, kadrlar tayyorlash milliy dasturida nazarda tutilgan vazifalar to'liq amalga oshgan taqdirda ular:

Birinchidan, "Ijtimoiy siyosiy iqlimga ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizdagi mavjud muhit butunlay o'zgaradi;

¹ қаранг. Юқоридаги манба. 74 бет.

Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach insonning hayotdan o'z o'rnini topishi tezlashadi;¹

Uchinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatimizda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. "o'zining qadr qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi"² deydi Prezidentimiz.

To'rtinchidan esa ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. SHu o'rinda har bir insonda muayyan darajada intellektual salohiyat majudligini takidlaydi.

SHuningdek, Prezidentimiz I.A.Karimov "Agar SHu ichki quvvatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart –sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushunchalar va aqidalardan halos ³" bo'lishini ta'kidlaydi.

Beshinchidan, "Biz fuqarolik jamiyat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Bu sohada dastlabki, ammo muhim qadamlar qo'yildi. Ishonchim komilki, vaqti soati kelib, bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi"¹, deydi.

SHuningdek, "Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongi tafakkuri har xil tizimlarda ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlarga fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi"²

¹ қаранг. И.А.Каримов. Миллий давлатчилик, истиқлол мафқураси ва ҳуқуқий маданият туғрисида. –Т; 1999 й 462 бет.

² Ўша жойда.

³ Ўша жойда.

2.2. “TA’LIM TO’G’RISIDA”GI QONUN VA “KADRLAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI”NING HAYOTGA JORIY ETILISHI.

O'zbekiston Respublikasi hali davlat mustaqqilligini qo'lga kiritmasdanok kadrlar tayyorlash masalasi respublikamizdagi dolzarb muammolarga aylanib bormoqda edi. «Aytish kerakki, kadrlarni puxtaroq qilib tayyorlamasdan, ularning qadriga yetmasdan, ularga ishonmasdan va qo'llab-quvvatlamasdan, o'ylaymanki, biron bir sohada ahvolni hech qanaqa tarzda o'zgartirib bo'lmaydi» degan edi Prezidentimiz I.Karimov.¹

SHuningdek, bu masalada I.Karimovning quyidagi fikrlariga tag'in diqqatingizni jalb qilamiz.

«Respublikamizning hozirgi davrigina emas, kelajagi ham tub millatdan sanoat ishchilar sinfini shakllantirish muammosi bilan bog'liq. o'zingiz o'ylab ko'ring, 460 ta kunduzgi hunar-texnika bilim yurtining har beshtasidan biridagina zamonaviy sanoat kasblari bo'yicha ishchilar tayyorlanadi. hunar-texnika bilim yurtlarining har uchtasidan birigina to'la o'quv kompleksiga ega. Ularning ta'lim maqsadlari uchun zamonaviy mashina-uskunalariga bo'lgan ehtiyojini bazaviy korxonalar juda qoniqarsiz ta'minlamoqda. Korxonalar va hunar-texnika bilim yurtlarining shartnoma sistemasiga o'tishi ishchi kadrlar tayyorlash ko'lamini keskin qisqarib ketishiga olib keldi, uningsiz ham hunar-texnika bilim yurtlari Respublikaning tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarini qanoatlantira olmayotgan edi. Qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, qurilish industriyasi, yengil sanoat korxonalarining ko'pida ish joylari muntazam ravishda bo'sh qolmoqda... Ko'p hollarda buning sababi bir xil - mehnatga layoqatli aholini hisobga olish va bir qancha mutaxassisliklar bo'yicha ishchi kadrlar tayyorlashni tashkil etishdagi jiddiy nuhsionlardir.

¹ И.А.Каримов. Ўн биринчи чакирик Ўзбекистон Олий Советининг биринчи сессиясида сўзлаган нутки. "Ўқитувчилар газетаси", 1998 й. 28 октябрь.

Ochig'ini aytish kerak, bu ahvol faqat iqtisodiy vazifalarni hal qilishdagina emas, shu bilan birga yoshlarga kasb o'rgatishni tashkil etishda... yo'l qo'yilgan nuhsionlarning natijasidir.

Bularning hammasi Ittifoqqa bo'ysunuvchi ko'pgina korxonalar joylarda ishchi kadrlar tayyorlash o'rniga ba'zan o'zlari uchun oson, lekin mahalliy aholini ish bilan ta'minlash muammosini chigallashtiradigan yo'ldan borib, mamlakatning boshqa regionlaridan tayyor xodimlarni taklif qilayotganliklarining bevosita oqibatidir. Bu yo'l shaharlarda uy-joy muammosini tag'in ham keskinlashtirmoqda, ishchilar sinfi milliy otryadini vujudga keltirishga to'sqinlik qilmoqda... degan edi Prezidentimiz. «SHuningdek, bir narsa ravshan – ishchilar va injener-texnik kadrlar tayyorlashning tarkib topgan sistemasini tubdan yangilash talab qilinadi...»² deb ta'kidlagan edi.

YUqorida keltirilgan dalillarga e'tibor bergan bo'lsangiz, unda ilk bor kadrlar tayyorlash tizimini tubdan yangilash masalasi ko'tarilgan.

Demak, Prezidentimiz bu muammoni yechish yo'llarini bundan o'n yil avval o'ylagan. YUqoridagi keltirilgan nutqdan bir yil keyin (1990 yil) esa I.Karimov milliy kadrlar tayyorlashni tizimga solishni rejalashtirilganligini payqash qiyin emas. Qolaversa, unda 1997 yil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» ning ilk loyihalarini ko'rish mumkin.

SHunday qilib, mustaqilligimizning ilk yillarida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim tug'rida»gi qonuni (1992 yil) qabul qilindi.

Mazkur qonunda O'zbekiston Respublikasida kelib chiqishi, jinsi, tili, yoshi, irqi, millati, e'tiqodi va dinga munosabati, ijtimoiy ahvoli, mashg'ulotining turi, turar joyi, respublika hududida qanchadan beri yashayotganligidan qat'iy nazar barchaning ta'lim olishi uchun teng xuquqlar kafolatlangan. (4-modda).¹

SHuningdek, ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga olgan:

1) maktabgacha tarbiya;

² И.А.Каримов «Ўқитувчилар газетаси», 1989 й. 25 ноябр.

¹ Ўзбекистонинг янги қонунлари -Т., -"Адолат". 1993 й. 6-сон, 48-бет.

² Ўзбекистонинг янги қонунлари -Т., -"Адолат". 1993 й. 6-сон, 49-бет.

- 2) umumiy ta'lim
- 3) maktabdan tashqari ta'lim;
- 4) hunar-texnika ta'limi;
- 5) o'rta maxsus ta'lim;
- 6) oliy ta'lim;
- 7) ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlash;
- 8) kadrlarning kasb-kor malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- 9) oiladagi ta'lim;
- 10) mustaqil ta'lim;²

Mazkur qonun avvalo, O'zbekiston ning ta'lim sohasida ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarni saqlab qolishga xizmat qiladi. SHuningdek, «bu qonun o'sha davr uchun juda zarur edi. CHunki jamiyat qonunsiz yashasa, vujudga keladigan bo'shliqni bir tasavvur qiling. Ayniqsa, ta'lim sohasida bunday hol juda salbiy oqibatlariga olib kelishi tajribalarda ko'p sinalgan. Mazkur qonunning yana bir xususiyati shunda ediki, u eski tuzum sartqitlarini ko'rsatib berishga xizmat qildi. Demak, to'plangan ijobiy jihatlarni saqlab, qolgan illatlarni anglab olishimizga xizmat qilgan, aniqrog'i eski tizimdan yangisiga o'tishga ko'prik vazifasini o'tagan qonunning ahamiyati ulkandir»¹.

SHu bilan birga 1992 yilda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun yaratgan imkoniyatlar sabab ta'lim tizimiga qator yangiliklar kirib keldi. Jumladan 1993 yilda oliy ta'lim tizimidagi islohatlarga keng e'tibor berildi. Bu masala O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida alohida yig'inda tahlil qilindi. Majlisni boshqargan Prezidentimiz Islom Karimov kadrlar saviyasi haqida, oliy o'quv yurtlarining ahvoli va ularning ishlab chiqarish korxonalari bilan munosabatlari haqida fikr bildirarkan, test tizimining afzalliklari haqida shunday degan edi:

«o'g'il-qizlarimizning o'qishga qabul qilishda test usulining qo'llanilishi ijobiy qadam bo'ldi. Bu qing'ir ishlar payini qirqadi, mish-mishlarga chek qo'yadi,

¹ И.А.Каримов. «Баркамол авлод орзуси» -Т., "Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси", 2000 й. 129-бет.

iste'dodli yoshlarni tanlab olish imkoniyatini beradi. Binobarin bu ishlarni takomillashtirib borish kerak.»²

Bundan tashqari, 1999 yilga qadar 97968 nafar xalq ta'limi xodimiga davlat uylari bepul xususiylashtirib berildi, 21946 nafar xodimga esa tashkilot va muassasalar tasarrufidagi uylar xususiylashtirib berildi.

35841 nafar pedagog xodimga shaxsiy qurilish uchun yer maydonlari ajratildi, qishloqlarda istiqomat qiladigan pedagog xodimlarning hammasi komunal xizmat uchun to'lovlardan to'la ozod etilgan bo'lsalar, shaharliklar uning 50% i miqdorida to'laydilar.

SHuningdek, moddiy manfaatdorlikka ma'naviy rag'batlantirishlarini ham qo'shish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

«1 oktyabr - o'qituvchi va murabbiylar kuni» dam olish kuni deb e'lon qilinib, uni butun O'zbekiston aholisi umumxalq shodiyonasi sifatida bayram qiladigan bo'ldi.

Boshqa sobiq ittifoq davlatlarida bunday kunning nishonlanishi haqida ma'lumotlar yo'q. Bu bayram arafasida yuzlab ta'lim fidoyilariga davlatning eng mo'tabar mukofotlari topshiriladigan bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi faxriy unvonlarining ko'pligi ham ilm-fan va ta'lim-tarbiyaning ahamiyati naqadar yuksakligini ko'rsatadi. Bular «O'zbekiston Respublikasi fan arbobi», «O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sport ustози», «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi» unvonlaridir.

SHunday qilib, 1992 yilgi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun o'z vaqtida muhim bo'lgan bo'lsada, ammo ta'lim tizimini isloh qilishning amaliy chora tadbirlari ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini bir-biri bilan uzviy bog'liq, ya'ni uzluksizlikni ta'minlash muammolarini yecha olmadi.

² И.А.Каримов «Илм зиё салохияти – юрт бойлиги» «Маърифат» газетаси, 1997 йил 21 июль.

Jumladan, umumiy o'rta ta'limga nazar tashlasak u tarkiban uch bosqichga bo'linib, boshlang'ich (1-4 sinflar), tayanch (5-9 sinflar) va umumiy o'rta ta'lim (10-11 (12) sinflar) dan tashkil topgan edi.

Bunda esa ta'lim tizimi mazmunining izchilligi, uzluksizligi, uzviyligini hisobga olish hollari buzildi.

SHuningdek, umumiy o'rta ta'limning davomiyligi muddati 10 yildan 11 yilga oshirilganligi sun'iy bo'lib, majburiy o'quv fanlarining soni nihoyatda oshib ketganligi ilmiy jihatdan asoslanmagan edi.

SHuningdek, mazkur fanlar mazmuni davlatimizda kechayotgan demokratik va iqtisodiy o'zgarishlar talablariga javob bermadi.

Eng asosiy kamchilik bu – o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlashga o'rgantmaslik, mehnat faoliyatiga tayyorlamaslik muammosining paydo bo'lganligi edi. 9-sinfni bitiruvchilar e'tiborsiz qoldirildi. SHu davrlar mobaynida respublikamizda har yili o'rtacha 450 mingdan ortiq o'quvchi 9-sinfni bitirdi. Ularning 250 mingi (55%) yuqori sinflarda o'qishni davom ettirdilar, 100 mingga yaqini esa hunar-texnika, o'rta maxsus bilim yurtlariga kirib o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega edi. Natijada 100 mingdan oshiq bola ta'lim olish yoki mehnat faoliyatiga jalb qilinmasdan qolib ketardi.

SHuningdek 9-11-sinflar darajasidagi ta'lim dasturlarida ikkita «uzilish» bor edi (bu hususida 1 – sxemada ko'rsatilgan).

Umumta'lim va kasb-hunar dasturidagi uzluksizlik, izchillik ikkinchi bosqichda, ya'ni hunar-texnika va o'rta maxsus ta'lim tizimida yanada buzildi. Prezidentimizning yuqorida ta'kidlangan nutqida aytilganidek «...bilim va tarbiyaning sifati, o'quvchilar olayotgan juda tor ixtisos-mutaxassisligi, shu bilan birga, tarbiyachi o'qituvchilar malakasining pastligi, bu bilim yurtlarining umuman bugungi kun talabiga javob bermasligi» namoyon bo'ldi.¹

Ta'lim tizimi isloh qilinishigacha bo'lgan ta'lim tizimida, sxemada ko'rsatilganidek, umumta'lim dasturining ikki joyida, ya'ni tayanch (1-9 sinflari) ta'lim dasturlari bilan umumiy o'rta ta'lim hamda boshlang'ich va o'rta maxsus

¹ И.А.Каримов. «Баркамол авлод орзуси» -Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2000 й. 159-бет.

ta'lim tizimi dasturlari o'rtasida «uzilish»lar mavjudligi ko'zga yaqqol tashlanadi. Buning natijasida esa ta'lim dasturlarining uzviyligi buzildi. Natijada esa, bolalarning kasb-hunarsiz holda qolib ketishi hollari yuz berdi. SHuningdek, o'quv dasturlarining bir-biriga nomutanosibligi, zamon talablariga javob bermasligi, ularda qaytarish va takrorlashlar ko'pligi ham uning ilmiy asoslanmaganligidan dalolat beradi.¹

Amaldagi «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda uzluksiz ta'lim tizimining eng ko'zga ko'rinadigan yutuqlaridan biri ham aynan ana shu «uzilish»larni yo'qotishdan iborat bo'ldi.

Bunda esa avvalombor, ilmiy asoslanmagan 11 yillik umumiy o'rta ta'lim tizimi 9 yillik o'quv tizimiga keltirildi. Unda o'quv fanlarining soni kamaytirilib samara beradigan darajaga yetkazildi, o'quv dasturlaridagi ko'pgina takrorlashlar olib tashlandi, mazmun jihatdan o'quv fanini o'zlashtirishni qiyinlashtirgan ba'zi boblar, qismlar ta'lim dasturlarning yuqori bosqichiga o'tkazildi. SHu bilan umumta'lim dasturlari keyingi ta'lim turlari – o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimi dasturlari bilan o'zaro uyg'unlashib uzluksiz ta'lim tizimini tashkil etdi.

Bundan tashqari shuni ta'kidlab o'tish joizki, akademik litsey va kasb–hunar kollejlarini tamomlagan bitiruvchilar oliy o'quv muassasalariga kirishda bir hil imkoniyatlarga ega bo'ladilar, ya'ni ular teng huquqlidirlar. SHuning uchun ham litsey va kollejlar uchun bir xilda umumta'lim dasturlari belgilangan.

o'rnatilgan umumta'lim dasturlarini o'zlashtirgan talabalar akademik litseylarda o'quv fanlari bo'yicha chuqurlashtirilgan ta'lim dasturlari va kasb-hunar kollejlarida yo'nalishlar bo'yicha chuqurlashtirilgan kasb-hunar dasturlari asosida bilim olishlari mumkin.

o'z navbatida keyingi bosqich – oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishni xohlagan yoshlarimiz o'z egallagan kasb-korlari bo'yicha mehnat bozorida faoliyat ko'rsatishlari mumkin bo'ladi.

¹ Каримов.И.А «Баркамол авлод орзуси». -Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2000 й, 160-бет.

Ma'lumki, «Ta'lim to'g'risida»gi qonun (1997 yilgi)ning asosini uzluksiz ta'lim tashkil etar ekan, uzluksiz ta'lim to'g'risidagi yurtboshimizning fikrlariga yana diqqatingizni jalb qilib o'tish o'rinlidir.

Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov maktabgacha ta'limni shunday ifodalaydi: «Maktabgacha ta'lim turi – bolani maktabgacha tayyorlash bilan birga, uni sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlaydi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi, unda o'qishga intilish xissini uyg'otadi. Bizning mamlakatimizda yangicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda shakllanayotgan maktabgacha ta'lim tizimi bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, bozor iqtisodiyotining o'tish bosqichi qiyinchiliklariga qaramasdan bu erishilgan ijobiy tajribalarni saqlash va rivojlantirish yo'lidan bormoqdamiz».¹

SHuningdek, Prezidentimiz misol tariqasida oilaviy ta'limning ko'rinishlaridan biri «Xonadon bog'chasi», «Fermer xo'jaligi bog'chasi», «Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab» majmualarini keltirgan edi.

Mamlakatimizdagi majburiy ta'lim to'g'risida so'z ketganda Prezidentimiz shunday degan edi: "Bu savolga birov 9 yil deb javob beradi, boshqamiz 12 yil deymiz. CHunki buning mazmunini, ahamiyatini hozircha hammamiz to'liq tushunib yetganimizcha yo'q. YAngi qonunimizga ko'ra O'zbekiston da majburiy-ixtiyoriy ta'lim 12 yil. Nima uchun ikki xil tushunayapmiz? Keling, buni aniqlash uchun 9 yillik – umumiy o'rta ta'lim hamda 3 yillik – o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi turlari haqida alohida-alohida fikr yuritaylik.

Biz orzu qilgan avlod poydevori umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'yiladi».¹

Prezidentimiz I.A.Karimov Kadrlar tayyorlash milliy modulining tarkibiy qismi bo'lgan uzluksiz ta'lim tizimiga kiritilgan uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining joriy etilishi ta'lim sohasida yangilik bo'ldi deydi.

SHuningdek, yuqoridagi majburiy ta'limning to'qqiz yili haqida fikrlashsak. YOshlarimiz uni tugatganlaridan so'ng yana uch yil o'rta maxsus kasb-hunar

¹ Каримов. И.А. «Баркамол авлод орзуси» -Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2000 й. 178-бет.

² Каримов. И.А. «Баркамол авлод орзуси» -Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2000 й. 182-бет.

o'quv yurtlari - akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda ta'limni majburiy ixtiyoriy davom etiradilar deydi. «Majburiylik – bu ikki yo'nalishdan birida o'qishni davom ettirishning shartliligi.

Ixtiyoriylik esa o'quvchilarning o'zi qiziqqan hamda layyohatiga mos yo'nalishni (kasb-korlikni) erkin tanlashidir»².

Huddi shu o'rinda «Ta'lim to'g'risida»gi qonunga asosan akademik litsey va kasb-hunar kollejining maqomi takomillashtirilganligini ta'kidlash joizdir. YUqorida qayd etilganday, ularning o'quvchilari va bitiruvchilari o'zlarining oliy o'quv yurtiga kirishda yoki tanlagan yo'nalishi bo'yicha faoliyat ko'rsatishda, konstitutsiyaviy haq-huquqlarini amalga oshirishda teng huquqlidirlar. SHu bilan birga akademik litsey hamda kasb-hunar kolleji o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan bir-biridan ma'lum ma'noda farq qiladi.

Prezidentimiz: «Insonning tafakkuri, aqliy salohiyati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni belgilaydigan omillardir. SHunday farzandlarimiz borki, ular umumiy o'rta ta'lim jarayonida ma'lum yo'nalish bo'yicha o'zlarining iqtidorlarini, iste'dodlarini namoyon etadilar. Bu boylikdan oqilona foydalanish, uni to'g'ri yo'naltirish katta ahamiyat kasb etadi. Akademik litseylar aynan shu maqsadni amalga oshirishga, iqtidorli, iste'dodli bolalarni tarbiyalashga xizmat qiladi»¹ degan edi.

Darhaqiqat, akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlagan yo'nalish bo'yicha bilimlarini oshirishi va muayyan kasb asoslarini chuqur, mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. SHuningdek, akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Oliy ta'limni isloh qilish omillariga to'xtaladigan bulsak «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da oliy ta'lim oldiga respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojini ta'minlash, o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida mustaqil ishlashga layoqatli,

¹ Юқоридаги манба. 183-бет.

yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iborat degan maqsad qo'yilgan.

«Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»da oliy ta'lim oldiga qo'yilgan vazifalarning ijrosi sobiq sho'rolar davridan qolgan, mustaqil O'zbekiston ta'lim tizimini tamomila yangi bosqichga ko'tarishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, yetishib chiqayotgan kadrlarda chuqur va mustaqil bilimlarni shakllantirish, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqatli, Vatanga muxabbatli, bu yo'ldagi fidoyilikni tarbiyalashni davom ettirish ham oliy ta'limning asosiy vazifasidir.

SHuningdek, bu yo'lda fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, olingan natijalardan ta'lim jarayonida unumli foydalanmasdan, o'qitish amaliyotiga yangi pedagogik va informatsion texnologiyalarni kiritmasdan yuqorida ta'kidlangan natijaga erishish qiyin masaladir.

Ushbu asosiy tamoyillarga avvalambor, ta'lim va tarbiyaning insonparvarligi va demokratikligi, universitet ta'limining ustivorligi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, Oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning uzluksizligi va vorisiyligi, ta'lim tizimining dunyoviy xarakterga ega ekanligi, davlat ta'lim standartlari doirasida oliy ta'limning xamma uchun ochiqligi, talant va iqtidorlikni rag'batlantirish, oliy ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvining uyg'unlashuvi, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi va boshqalar kiradi.

YUqorida ta'kidlab o'tilganidek, davlat ta'lim standartlari doirasida oliy ma'lumot olish mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun ochiqdir. Bunday imkoniyat esa ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

a) davlat grantlari, ya'ni talabalarning o'qish uchun zarur bo'lgan xarajatlarini davlat o'z zimmasiga oladi. Grantlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida oliy malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib belgilanadi. SHuningdek, Prezidentimiz Farmoniga asosan halqaro va respublika fan olimpiadalari, xalqaro

musobaqalar g'oliblari oliy o'quv yurtlariga test sinovlarsiz kirish huquqiga egadirlar;

b) bundan tashqari, yoshlarimiz to'lov-kontrakt shaklida ham oliy o'quv yurtlarida o'qishlari mumkin. Bunda oliy ma'lumot olish istagida bo'lgan yoshlar tegishli o'quv yurtlari ma'muriyati bilan shartnoma tuzadilar.

SHartnomada har ikkala tomonning vazifalari belgilab olinadi. Talabalik safiga test sinovlari natijalari yoki grantlardan so'ng ballar ketma-ketligi (reyting) asosida qabul qilingan abiturentlar belgilangan miqdordan mablag'ni oliy o'quv yurti hisobiga o'tkazadilar. Tegishli mablag'ni talaba uchun muassasalar, korxonalar, firmalar va boshqa tashkilotlar ham o'tkazishlari mumkin.

To'lov-kontrakt shaklida o'qish qoidalari va shartlari davlat tomonidan mavjud qonunchilikka asoslangan holda belgilanadi.

Kontraktdan tushgan mablag'lardan oliy o'quv yurtining moddiy-texnika negizini mustahkamlash, pedagog xodimlarni rag'batlantirish, talabalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va boshqa maqsadlardan foydalaniladi.

SHuningdek, respublikamizda oliy ta'lim muassasalari quyidagilardir:

a) Universitet — kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturini amalga oshirishga imkon beradigan bilim dargohidir;

b) Akademiya — kadrlar tayyorlash va bilimlarning aniq sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

v) Institut – bilimlarning bitta sohasi doirasida aniq yo'nalishlar bo'yicha oliy va qoidaga ko'ra oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturini amalga oshirishga qaratilgan bilim dargohidir.

SHuningdek, davlat tasarrufida bo'lmagan oliy ta'lim muassasalari ta'lim faoliyati huquqini faqatgina davlat attestatsiyasidan o'tgandan boshlab kiritadilar. Oliy ta'lim muassasalari attestatsiya natijalariga ko'ra davlat akreditatsiyasidan maxrum etilishlari ham mumkin.

YUqorida ta'kidlanganidek, davlat ta'lim standartlari doirasida oliy ma'lumot olish mamlakatimizning har bir fuqarosi uchun ochiqdir.

SHuningdek, 2001 yil avgust oyining oxirlarida Toshkent shahri mahallalarining birida olib borilgan so'rovlar natijalarida shunga amin bo'ldik-ki, mazkur mahalladagi 15 ta oilada oliy o'quv yurtiga imtixon topshirgan yoshlarning 8 tasi kontrakt asosida oliy ma'lumot olish imkoniyatiga ega bo'lgan, lekin moddiy ahvol sabab bo'lib ularning 6 tasi o'qish imkoniyatiga ega bo'la olmagan. SHuningdek, bunaqangi ma'lumotlar boshqa ko'plab joylarda uchraydi. SHu o'rinda kelgusida oliy ta'lim tizimida davlat grantlarini (hech bo'lmaganda 20% ini) saqlab qolish zarurligini ta'kidlash joiz.

Zero, bu ixtidorli yoshlarimizning (ayrim) o'z istaklari asosida kasb tanlashi va mamlakatimiz kelajagi uchun zarur kadrlar bo'lib yetishish imkoniyatiga ega bo'la olishlarini ta'minlaydi.

«Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunini amalda joriy qilinish to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak, mazkur qonunning asosini tashkil qiluvchi uzluksiz ta'lim tizimi birinchi bo'lib diqqatimizni jalb qiladi.

Ma'lumki, uzluksiz ta'lim tizimining ilk qadamlari maktabgacha ta'limdan boshlanadi.

1998 yilgacha bo'lgan statistik ma'lumotlarga ko'ra maktabgacha tarbiya muassasalari respublikamizda 6911 ta bo'lgan, hozirgi kunda birgina Toshkent shahrida 21 ta «Bolalar bog'chasi - maktab» majmui, 5 ta xususiy bog'cha, 2 ta reabilitatsiya markazi rivojlanishda turli xil ruhiy va jismoniy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun 43 ta maxsus, gepatit va sil kasaligiga uchragan bolalar uchun 29 ta sanatoriy tipidagi maktabgacha ta'lim muassasalari tashkil qilingan.

Respublikamiz umumta'lim maktablari 1999 – yilgacha bo'lgan statistik ma'lumotlarga qaraganda 1998/99 o'quv yilida 9703 tadan iborat bo'lgan.

SHuningdek, chuqurlashtirilgan predmetlarni o'rgatuvchi maktablar soni 1995/96 o'quv yilida respublikamizda 2494 ta bo'lsa, bu ko'rsatkich 1998/99 yili 3254 taga ortdi.

Bundan tashqari, umumta'lim maktablarining 9-sinfini bitiruvchilar soni 1997 yil 481527 bo'lgan bo'lsa, 1998 yilda bu ko'rsatkich 487258 taga yetgan.

SHundan 1997 yilgi 327671 tasini va 1998 yilgi 331424 tasini qishloq aholisi tashkil qilgan.

Respublikamizdagi umumta'lim maktablarining 11(12)-sinfini bitiruvchilar soni 1997 yilda 227391 ta bo'lgan bo'lsa 1998 yilda bularning soni 248484 taga yetgan. SHulardan 1997 yil 163049 tasini, 1998 yilda 178596 tasini qishloq aholisi tashkil qilgan.¹

o'rta maxsus kasb-hunar ta'limiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1998-99 o'quv yilidan boshlab tajriba sifatida respublikamizda 35 ta o'rta maxsus kasb-hunar o'quv muassasalari tashkil etildi va faoliyat yurita boshladi.²

2001 yil 30 iyunda respublikamizda yangi ta'lim muassasalari akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 35 tasini ilk bor tamomlab chiqayotgan 5 ming nafarga yaqin yoshlarga diplom topshirildi.³ Bu esa mazkur ta'lim turini bitirib chiqqan kadrlarning mamlakatimizdagi kichik kadrlarga bo'lgan muammolarining o'z yechimini topa boshlaganligini bildiradi.

SHu bilan birga, bugungi magistrlar hozirgi pedagogikaning ilg'or namoyandalari bo'lishga qodir bir kuchga ega. SHu boisdan bitirib chiqayotgan ilk magistrarga – o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimidan, oliy ta'lim dargohlaridan ko'plab buyurtmalar tushyapti. YOsh magistrarga ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, ilmiy muassasalardan ham takliflar ko'p.

Ilk bitiruvchilarga Prezidentimiz tabrigida ajoyib istaklar anglanadi: «Olgan bilim va tajribangiz, odob-axloq, kasb-hunar bobidagi kamolingiz faqat yaxshilikka, bunyodkorlikka buyursin, avvalo, o'zingizga, butun el yurtigingizga baxtu saodat keltirsin».¹

YUqoridagi yutuqlarimiz albatta «Ta'lim to'g'risida»gi qonunning mukammalligidan dalolat beradi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning o'zidan avvalgi Qonundan afzal bo'lgan quyidagi jihatlarini ham ko'rsatib o'tish muhimdir:

¹ "О образование" "Статист. сборник". -Т., 1998 г.

² И.А.Каримов. "Баркамол авлод орзуси". -Т., "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". 2001 й. 205-бет.

³ Ўзбекистон овози. 2001 йил, 5 июль сони.

¹ Ўзбекистон овози. 2001 йил 5 июль сони.

Birinchidan, ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinishi;

ikkinchidan, umumiy o'rta, shuningdek, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;

uchinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishini akademik litseyda va kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

to'rtinchidan, ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyIunlashtirilganligi. Qonunning 4-moddasida esa, shunday deyilgan davlat va nodavlat ta'lim ta'lim muassasalarini rivojlantirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash milliy dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek, ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rganish;

barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng xuquqlarga ega bo'lishi;

oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanadi.

SHuningdek, Respublikamizda istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bilim olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng xuquqlarga ega ekanligi belgilab qo'yilgan. Qonunda ta'lim muassasasining huquqiy maqomi belgilangan (6-modda) bo'lib, unga ko'ra ta'lim muassasasini akreditatsiyalash vakolatiga ega bo'lgan davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshirilishi belgilangan.

Ta'lim muassasasi yuridik shaxs bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta'lim muassasasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta'lim faoliyati bilan shuIullanish huquqiga ega bo'lishi qonunda belgilangan.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining hayotga joriy etilishi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan bo'lib, u milliy modelni ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, pedagogik-psixologik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldidagi javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni¹ o'z oldiga maqsad qilib olgandir.

- «Bizga milliy kadrlar tayyorlashning maxsus dasturi kerak, bu dastur:

- umumiy ta'lim maktablarida dars berish sifatini oshirish (o'qituvchilarni, metodistlarni qo'shimcha ravishda moddiy ralatlantirish, maxsus sinfxonalar barpo etish, oliy o'quv yurtlarining maktablarini otaliqqa olishni yo'lga qo'yish va shu kabilarni);

- eng iste'dodli bolalar uchun maktablar ochishni;

- korxonalar bilan maktablar o'rtasida sifat jihatidan yangi munosabatlarni joriy etishni;

- hunar texnika bilim yurtlarida ho'jalik hisobini joriy qilishni va shu asosda ommaviy kasb kadrlari tayyorlash sifatini keskin oshirishni;

- oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sistemasini qayta qurishni, bu sohaga kadrlar tayyorlashni buyurtma berish usulini joriy etishni o'z ichiga olishi kerak»¹ degan edi Prezidentimiz Islom Abdulaniyevich Karimov.

YUqorida keltirilgan Prezidentimizning nutqidan shu narsa ayonki, O'zbekiston davlat mustaqilligining ilk yillarida ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor qaratgan.

SHuningdek, Prezidentimiz o'z nutqida: - «Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz!»² degan edi.

¹ Ўзбекистоннинг янги қонунлари . –Т., «Адолат», 1998 й. 18-сон, 10-бет.

¹ Ўн иккинчи чакириқ Ўзбекитсон Республикаси Олий Кенгашининг навбатдан ташқари т'ққизинчи сессиясидаги нуткидан. «Маърифат» газетаси. 1992 й., 7 январь.

² Юқоридаги манба.

Darhaqiqat, «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratishda, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirishda Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohatlarning samara berishida asosiy rol o'ynovchi yuqori malakali, zamonaviy kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Bundan tashqari, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishda, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, xuquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishda, jamiyat, davlat va oila oldidagi javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasini rivojlanishining erishgan darajasini inkor etmagan holda, bu sohadagi kamchilik va muammolarni ham ochib berdi.

Ta'lim sohasini tubdan isloh qilishda, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etishda rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» «asosiy yo'l ko'rsatuvchi» vazifasini o'taydi.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» ta'lim sohasini tubdan isloh qilishda, islohatlarni bosqichma-bosqich o'tkazish tamoyilini qo'ydi.

Ta'limning barcha turlari uchun huquqiy me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»da belgilangan kadrlar tayyorlash milliy modeliing asosiy tarkibiy qismlaridan birinchisi «shaxs» deb belgilangan.

YA'ni, shaxs – «Kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi» dir.¹

¹ Ўзбекистоннинг янги қонунлари. –Т, «Адолат», 1998 й. 13-бет,

SHuning uchun mamlakatimizda, milliy qonunchiligimizda shaxsning huquq va erkinliklari ustuvordir.

Zero, mamlakatimizdagi hozirgi islohatlarimiz shaxsning bugungi va ertangi kuniga xizmat qilmog'i uchundir.

Dasturda ta'limning barcha turlari, ularning maqsadi, vazifalari belgilab berilgan.

SHuningdek, Milliy dasturda kadrlar tayyorlash tizimida fanning tutgan o'rniga, uning vazifalariga alohida urg'u berilgan. Unda shunday deyilgan: «mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga integratsiyasi sodir bo'ladi, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarni hal etish uchun ilmiy yutuqlar va kadrlarni halqaro miqyosda almashinuv amalga oshiriladi.»²

YA'ni «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» fanning ta'lim sohasida qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratib, uning rivojlanishi uchun huquqiy zamin yaratib berdi.

Milliy dasturda kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Unda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilgan:

- 1) ta'limning uzluksizligini ta'minlash;
 - 2) pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash; qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
 - 3) ta'lim jarayonini mazmunan isloh qilish;
 - 4) ma'naviy-axloqiy tarbiya va ma'rifiy ishlar;
 - 5) iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar;
 - 6) ta'lim tizimini boshqarish;
 - 7) kasb-hunar ta'limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;
 - 8) ta'lim tizimini moliyalash;
 - 9) moddiy-texnika ta'minoti;
 - 10) ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish;
-

- 11) ta'lim xizmati ko'rsatish bozorini rivojlantirish;
- 12) ta'lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- 13) fan va ta'lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish;
- 14) ishlab chiqarish va ta'lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish;
- 15) ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi halqaro hamkorlik.

Milliy dasturning yana bir ahamiyatli jihati, unda dasturni amalga oshirish bosqichlari, muddatlari aniq belgilanganligidadir.

SHuningdek, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat, jamiyat va inson faoliyatining barcha sohalari qamrab olingan.

O'zbekiston xalqi o'z oldiga huquqiy-demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini bunyod etishni maqsad qilib qo'ydi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning hayotga tadbiq etilishi Xalqaro hamjamiyatda o'z o'rnimizni mustahkam egallashga olib keladi. CHunki, dunyoning bugungi kunimizdagi taraqqiy etishi harbiy qudratga bog'liq emas, balki intellektual salohiyatda, ilg'or texnologiyalardadir.

SHu o'rinda Prezidentimizning fikrlarini keltirib o'tish o'rinlidir: - «Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. o'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi»¹

Darhaqiqat, Milliy dastur ta'limning barcha turlarini muvaffaqiyati hayotimizga tadbiq qiluvchi va uning kelgusidagi faoliyatiga ko'maklashishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan me'yoriy hujjatdir.

¹ И.А.Каримов. «Баркамол авлод орзуси». –Т., «Ўзбекистон Милий Энциклопедияси», 2001 йил, 208-бет.

XULOSA

Islom Karimov «Barkamol avlod orzusi» asarida «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni amalga oshirgan taqdirdagina ta'limning yangi modeli yaratilishi mumkinligini alohida uqtiradi. Ular:

Birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir qiladi va natijada mamlakatimizda mavjud muhit butunlay o'zgaradi;

Ikkinchidan, ta'limning yangi modeli ishga tushgach, insonning hayotda o'z o'rnini topish jarayoni tezlashadi. Har qanday odam ham o'smirlik chog'ida, endigina voyaga yetib kelayotgan davrida jamiyatdan munosib o'mini topishi kerak. Aks holda bu narsa noxush oqibatlarga, ba'zan esa og'ir fojialarga, hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo'ladi. Yosh yigit - qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamoa orasida o'z o'rnini topolmaslik holatlari ulaming jamiyatda o'z qadrini yo'qotishiga olib keladi. O'z qadriga, o'z sha'niga ega bo'lmagan inson hayotda ko'p to'siqlarga duchor boladi, beqaror va salbiy ta'sirlarga tez beriladi, uning shaxs sifatidagi yemirilishi ham tez kechadi.

Biz joriy etilayotgan mazkur ta'lim modeli orqali, avvalo, ana shu vaziyatning oldini olamiz. Qolaversa, yoshlarni muayyan bir ixtisosga ega qilib, hayotga yo'llanma beramiz. Dunyoga umid bilan qadam qo'yib kelayotgan navnihol inson hayotdan munosib o'mini topsa, turmushidan, taqdiridan, vatanidan rozi bo'lib yashaydi, umr bo'yi bunyodkorlik faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi.

Bu g'oyat muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir;

Uchinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr- qimmatini anglaydigan, irodasi baquwat, imoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam olomon bo'lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha, o'z aql, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan, ongli tarzda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Bunday odamlar uyushgan jamiyatni, ular barpo etgan ma'naviy-ruhiy muhitni soxta aqidalar, baqiriq-chaqiriqlar, havoyi shiorlar bilan aslo buzib bo'lmaydi.

Ulami o'zlari aql-idrok va qalb amri bilan tanlab olgan hayotiy maqsadlardan chalg'itib ham bo'lmaydi;

To'rtinchidan, ta'limning yangi modeli jamiyatimizning potensial kuchlarini ro'yobga chiqarishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Har qaysi insonda muayyan darajada intellektual salohiyat mavjud. Agar shu ichki quwatning to'liq yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit yaratilsa, tafakkur har xil qotib qolgan eski tushuncha va aqidalardan xalos bo'ladi. Va har qaysi inson Olloh taolo ato etgan noyob qobiliyat va isfedodni awalo, o'zi uchun, oilasining, millati va xalqining, davlatining farovonligi, baxti-saodati, manfaati uchun to'liq baxshida etsa, bunday jamiyat shu qadar kuchli taraqqiyotga erishadiki, uning sur'at va samarasini hatto tasawur qilish ham oson emas. Oldimizda turgan buyuk maqsadlaiga erishishda jamiyatimizning har bir a'zosi qo'shadigan hissa shu hisobdan beqiyos bo'lishi muqarrar. Men «portlash effekti» deganda aynan shunday holatni nazarda tutmoqdaman;

Beshinchidan, biz fuqarolik jamiyati qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Bu sohada dastlabki, ammo muhim qadamlar qo'yildi. Ishonchim komilki, vaqti-soati kelib, bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi. Mana shu yo'l, mana shu nazariy masalarni mohiyatini atroficha yoritish, uni hayotimizda, amaliyotimizda hal qiluvchi siyosatga aylantirish nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizning ham eng muhim va dolzarb vazifasidir. Taraqqiyotning umumbashariy qonuniyatlari, insoniyatning ko'p yillik hayotida sinovlardan o'tib, ijobiy natijalar bergan tajribalar xuddi shu yo'lni taqozo etadi.

Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ta'kidlaganidek, bilim va tarbiyaning sifati, o'quvchilar olayotgan ixtisos mutaxassisligi, shu bilan birga, tarbiyachi-o'qituvchilar malakasining pastligi bu bilim yurtlarining umuman bugungi kun talabiga javob bermasligi kabi muammolar «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi»ning yaratilishiga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribamizning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan, hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikni, ijtimoiy va siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish maxoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

SHuningdek, mazkur dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lim va kasb-hunar dasturlarini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta o'zlashtirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z javobgarligini his etadigan fuqarolarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Milliy Dasturda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish omillarida rivojlanishning erishilgan darajasiga alohida e'tibor qaratilgan, unda O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'lining tanlanganligi kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini qayta tashkil qilishni zarur qilib qo'yganligi va xuddi shu o'rinda qator chora-tadbirlar ko'rishni ya'ni:

birinchidan, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni joriy qilishni (1997 yilgi);

ikkinchidan, yangi o'quv rejalari, dasturlari, darsliklarni joriy etishni, zamonaviy didaktik ta'minotni ishlab chiqishni;

uchinchidan, o'quv yurtlarini attestatsiyadan o'tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagi ta'lim muassasalarini tashkil etishni talab etayotganligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR Ro'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. "O'zbekiston ". 1998.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to'g'risida" gi Qonuni. 1997 yil 29 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1997 yil. 6 avgust.
4. "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Toshkent. 1997 yil, 6 oktyabr. PF № 1869.
5. I.A.Karimov. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". "SHarq", 1999 y.
6. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". 1997 y.
7. I.A.Karimov. o'n birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining o'n birinchi sessiyasida so'zlangan nutq. "o'qituvchilar gazetasi". 1989 y, 28 oktyabr.
8. "Qashqadaryo haqiqati" gazetasi, 1988 y. 24 may. I.A.Karimov nutqidan.
9. I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi". "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2000 yil.
10. I.A.Karimov. "O'zbekiston ning o'z istiqlol va taraqqiyt yo'li" - O'zbekiston , 1992 y.
11. I.A.Karimov. "O'zbekiston ning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining tamoyillari". O'zbekiston , 1995 y.
12. I.A.Karimov. "O'zbekiston : milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura". - T., 1996. 1-tom.
13. I.A.Karimov. "Milliy davlatchilik, istiqlol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida". T., 1999 y.
14. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari.

15. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T., "O'zbekiston ", 1999 y.
16. I.A.Karimov. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni millat qilishga hizmat etsin". T., "O'zbekiston ", 1998 y.
17. I.A.Karimov. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". Muloqot, 1998. №5.
18. I.A.Karimov. "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat". T., O'zbekiston , 1993 y.
19. I.A.Karimov. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin!". T., "O'zbekiston ", 1993 y.
20. I.A.Karimov. "O'zbekiston ning siyosiy-ijtimoiy va iktisodiy-ijtimoiy istiqbolining asosiy tamoyillari". T., "O'zbekiston ", 1995 y.
21. I.A.Karimov. "O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li". T., "O'zbekiston ", 1993 y.
22. I.A.Karimov. "Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman". Fidokor gazetasi. 2000 yil. 8 iyul.
23. I.A.Karimov. "Biz uchun xalqimiz, Vatanimiz manfaatidan ulug' maqsad yo'q". O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2001 yil, 7 dekabr.
24. Davlat va huquq nazariyasi. xB.Boboyev va xT.Odilqoriyevlar umumiy tahriri ostida. Toshkent Davlat yuridik instituti. 2000 yil.
25. Z.Islomov. "Obshestva, gosudarstva, pravo". T-1,2. -T., Adolat, 1997 y.
26. Z.Islomov. "Davlat va huquq: Umumnazariy masalalari". T., Adolat, 2000 y.
27. A.Saidov, U.Tojixonov. "Davlat va huquq asoslari" (darslik). T., "O'zbekiston ", 1999 y.
28. A.X.Saidov. U.T.Tojixonov. "Mustaqillik qomusi". T., 193 y.
29. Davlat va huquq nazariyasi. X.B.Boboyev va X.T.Odilqoriyevlar umumiy tahriri ostida. Toshkent Davlat yuridik instituti. 2000 yil.